

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix FAKULTETI

401-guruhi talabasi Masharipov Abrorning

5111600 “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va xuquq ta’limi” yo’nalishi
bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar

Ilmiy rahbar:

dots. A.Abdullaev

Urganch 2015 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

Masharpov Abror

Rahbar :

dots. A.Abdullaev

Urganch shahri
2015-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

Talaba. Masharipov Abrorga Universitet rektorining «189 T 1&»-sonli 17 noyabr 2014 yil buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan dots. A.Abdullaev

bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Bitiruv malakaviy ish-Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig'ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. Bitiruv malakaviy ishga _____

ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2014 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2015 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2015 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va taxlil qilish	2015 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2015 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2015 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: dots. A.Abdullaev

Bajaruvchi talaba: Masharipov Abror

2014 yil «6» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi
(«6»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: t.f.n. U.Sherpov

(imzo)

3-ilova

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Masharipov Abror

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi
munosabatlar**

Bitiruv malakaviy ish xajmi: 69 sahifa

Tushuntirish hismi: 50 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlagan O'zbekistonda SHo'rolar davridagi dinga bo'lgan salbiy munosabatlar rad etilib, fuqarolarning e'tiqod erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 moddasida – “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi” deb ta'kidlangan.

Ya'ni diniy e'tiqod har kimning huquqiy ishi. Ayni vaqtda din davlatdan va davlat dinidan ajratilgan. Bu O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati va dunyoviy demokratik davlat talablariga to'liq javob beradigan tamoyildir.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Masharipov Abror barcha fanlarni to'la o'zlashtirib, ularni amaliyotga qo'llash ko'nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Masharipov Abror o'zi mustaqil ishlay oladi, mahsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O'zining

mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o'z ustida muntazam ishlaydi. Muomulasi yaxshi, ishga mas'uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishning amaliy ahamiyati katta bo'lib, uning materiallaridan umum ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari, Oliy o'quv yurtlari talabalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish to'la talabga javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

dots. A.Abdullaev

(f.i.sh.)

2015 yil «28» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va xuquq ta'limi" yo'nalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar

Malakaviy ishning hajmi. 13 ming so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 50 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi o'z aksini topgan bo'lib, to'la talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan.

Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi:

Quryazova Bikajon Urganch transport kasb xunar
kolleji kaf.mudiri

2015 yil « » _____

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	"Xulosa" hismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e'tiborga olingan holda baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

6-ilova

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi
Masharipov Abrorning **“O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar”** mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning «____»
2015 yil «____iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon hila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. **“O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar.”** mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va «____» deb baholansin.

2. _____
DAK raisi: _____
A'zolari: _____

2015 yil «____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan
qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Masharipov Abror

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi
munosabatlar”.

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi: dots. A.Abdullaev

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil «___» mayda o'tkazilgan majlisi
qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Quryozova Bikajon _____
_____ tayinlandi.

Kafedra mudiri:

t.f.n. U.Sheripov

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

t.f.n. O.Shixov

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 5111600 ta'lim bakalavr

Tasdiqlayman
fakultet dekani

“ ____ ” _____ 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba : Masharipov Abror

Ishning mavzusi: “O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar.”

«17 noyabr 2014 yil universitet rektorining 189 T 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” _____ 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

¹ Jo'raev U. Saidjanov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. “Sharq” 1998 y

² Yo'ldashxo'jaev H. Dinshunoslik . T. 2000 y

³ Xusniddinov Z. Vijdon eriknligi-uni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati. Jamiyat va boshqaruv. 2002 y. 4 son

⁴ Mirsafaev S. E'tiqod, vijdon erkindir, u zo'rlab singdirilmaydi. Inson va qonun. 1990 y. 26 oktabr

⁵ Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. T. 2001 y

⁶ Eshonov B. Konstitutsiya va diniy e'tiqod erkinligi. O'zbekiston ovozi. 1999y. 6 aprel

⁷ Komilov N. Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. T. “Akademiya” 2006 y

4. Ishning maqsadi.

Ishda istiqlol yillarida O'zbekistonning diniy siyosati mohiyatini, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar;

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy siyosatning mohiyatini ochib berish;
- O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosbatlarni yoritish;
- Diniy e'tiqod erkinligining huquqiy asoslarini ko'rsatish;
- Mustaqillik yillarida respublikamizda diniy qadriyatlarning qayta tiklanishini o'rganish;
- Diniy bag'rikenglik siyosatining mohiyatini ochib berish.

5. Chizma materiallar ro'yxati:_____

6.M aslahatchilar:_____

	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni:

Quryozova Bikajon Urganch transport kasb xunar kolleji kafedra mudiri

7. Ilmiy rahbar:

dots.A.Abdullaev

BMI bajaruvchi talaba:

Masharipov Abror

Kafedra mudiri: t.f.n. U.Sheripov

(F.I.Sh.)

(imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	15-18
I. Bob O'zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy siyosatning mohiyati.	
1.1 O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar.....	19-26
1.2 Dinning jamiyatda tutgan o'rni.....	27-33
II. Bob O'zbekistonda olib borilayotgan diniy bag'rikenglik siyosatining mohiyati	
2.1 Mustaqillik yillarida respublikada diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi.....	34-51
2.2 Diniy bag'rikenglik taraqqiyot omili	52-65
Xulosa.....	66-67
Foydalanilgan adabiyotlar.....	68-69

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lini tanlagan O'zbekistonda SHO'rolar davridagi dinga bo'lgan salbiy munosabatlar rad etilib, fuqarolarning e'tiqod erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 moddasida – “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”¹, deb ta'kidlangan.

Ya'ni diniy e'tiqod har kimning huquqiy ishi. Ayni vaqtda din davlatdan va davlat dinidan ajratilgan. Bu O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati va dunyoviy demokratik davlat talablariga to'liq javob beradigan tamoyildir.

Biroq davlat dinning jamiyatdagi mavqei va tarbiyaviy roli, ruhiy-ma'naviy tiklanishdagi ahamiyatini nazardan sohit qilmaydi. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, ahloqiy va ma'naviy qadriyatlardan tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz.”²

Davlatimizning izchil davom etayotgan bunday oqilona va odilona siyosati mamlakatda diniy bag'rikenglik, sabr-toqatlilik muhitini yaratish, ijtimoiy barqarorlik va osoyishtalikni ta'minlab, har tomonlama taraqqiyotga yo'l ochishga sabab bo'lmoqda. Jumladan, “Xalqimizning ming yillik ma'naviy ahloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash” (I.Karimov) umummiliy ma'naviy tiklanishining ajralmas tarkibiy qismi sifatida uzlkusiz davom etmoqda. Bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, islom g'oyalarini o'zlariga qurol qilib olgan ekstremistik jangarilar, diniy fundamentalizm tarafdorlariga qarshi kurashish davrning eng dolzarb vazifasi bo'lib turibdi. Aholiga haqiqiy ma'rifiy islom bilan

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, “O'zbekiston”, 2014y. 9 bet

² Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, “O'zbekiston”, 1997 yil 44 bet

ekstremistlarning zararli, buzg'unchi g'oyalari orasidagi farqni tushuntirish uchun islomning o'zini yaxshi bilish lozim. Rahbar kadrlar, davlat xizmatchilari, o'quvchilar va yoshlar O'zbekiston davlatining din sohasidagi siyosati, uning qonuniy asoslari, dinning ma'rifiy mohiyatini yaxshi bilishlari ularning amaliy faoliyatida, ma'naviy-mafkuraviy yo'nalishdagi ishlarida hayotiy zarurat sifatida kerak bo'lishi tabiiy.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahrir) qonunining 5 moddasida ta'kidlanishicha, "O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalarga nisbatan biron bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi".¹

Hech bir dinga imtiyoz yoki cheklashlar berilmaydi. O'zbekiston aholisining ko'pchiligi musulmonlar bo'lishiga qaramay, O'zbekiston davlati islomni qo'llab-quvvatlab, boshqa dinlarni tahqirlayotgani yo'q. Agar shunday qilinsa, bunday xarakat Konstitutsiyaga zid, boshqa dindagi fuqarolar huquqi cheklangan bo'lardi, demokratiya printsiplari buzilardi. Qonunda yana qayd etiladi: "Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklaydi, ularning qonun xujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi".²

Shuni e'tiborga olish lozimki, din davlatdan ajratilgani bilan, jamiyatdan ajratilgan emas. Aksincha, din jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga ta'sir qilib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

SHu nuqtai nazardan mazkur mavzuni o'rganish juda dolzarb xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi. Ishni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Xushyorlikka da'vat", "Oллоh qalbimizda yuragimizda", "YUksak

¹ O'zbekiston Respublikasining "Vijdon eriknligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston ovozi. 1998 yil 23 may

² O'sha joyda

ma'naviyat-engilmas kuch", "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli asarlari metodologik asos, mavzuga oid, ilmiy maqolalar, risolalar, monografiyalar, Oliy majlis palatalari yig'ilishlari materiallari, matbuot va internet materiallari muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning ilmiy o'rganilganlik darajasi. Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi va islom ma'naviyati mavzulariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar respublikamiz olimlari va mutaxassislari tomonidan tayyorlanib chop qildirildi.

Istiqlolga erishgandan keyin Qur'oni Karimning o'zbekcha nashri, so'ngra Xazrat Islom al-Buxoriy to'plab qoldirgan Al-Jomi' as- Sahix ning o'zbek tilidagi to'rt jildi, "Ahloq va odobga oid Xadis namunalari", "Kudsiy xadsilari", "Ming bir xadis" payg'ambarlarimiz xayoti va faoliyatini aks ettiruvchi o'nlab kitoblar, shuningdek yuzlab diniy mavzudagi asarlar chop etildi.

Shuningdek, quyidagi ilmiy ishlar chop qilindi. U.Jo'raev, Y.Saidjanov¹, H. Yo'ldoshxo'jaev², Z.Xusniddinov³, S.Mirsafaev⁴, E.Yusupov⁵, B.Eshanov⁶, N.Komilov, K.Jo'raev⁷ va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Ishda istiqlool yillarida O'zbekistonning diniy siyosati mohiyatini, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni yoritish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiquvchi vazifalar quyidagilar;

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy siyosatning mohiyatini ochib berish;
- O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni yoritish;
- Diniy e'tiqod erkinligining huquqiy asoslarini ko'rsatish;
- Mustaqillik yillarida respublikamizda diniy qadriyatlarning qayta tiklanishini o'rganish;

¹ Jo'raev U. Saidjanov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. "SHarq" 1998 y

² Yo'ldashxo'jaev H. Dinshunoslik . T. 2000 y

³ Xusniddinov Z. Vijdon eriknligi-uni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati. Jamiyat va boshqaruv. 2002 y. 4 son

⁴ Mirsafaev S. E'tiqod, vijdon erkindir, u zo'rlab singdirilmaydi. Inson va qonun. 1990 y. 26 oktabr

⁵ Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. T. 2001 y

⁶ Eshonov B. Konstitutsiya va diniy e'tiqod erkinligi. O'zbekiston ovozi. 1999y. 6 aprel

⁷ Komilov N. Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. T. "Akademiya" 2006 y

- Diniy bag'rikenglik siyosatining mohiyatini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Ishning materiallaridan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari akademik litseylarda, Oliy o'quv yurtlari o'quvchi va talabalari O'zbekiston tarixi, falsafa, dinshunoslik, ma'naviyat asoslari, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari fanlarini o'rganishda muhim manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va xajmi. Ish- Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning xajmi 69 sahifani tashkil etadi.

I. Bob O'zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy siyosatning mohiyati.

1.1 O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar.

O'zbekiston qadimdan diniy ta'limotlar rivojlangan mamlakat bo'lib, islomdan avval zardushtiylik va boshqa o'nlab dinlar, mazhab, oqimlar mavjud bo'lib kelgan. Islom g'alaba qilgandan keyin, u nafaqat imon-e'tiqodimiz bo'lib qoldi, balki milliy ma'naviyatimiz, milliy odatlarimizga ham chuqur ta'sir etdi. Islom tasavvuf ko'rinishida Markaziy Osiyoda ma'naviy va g'oyaviy birlashtiruvchi kuch sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Sohibqiron Amir Temurning sarbadorlar bilan birga mo'g'ullarga qarshi olib borgan kurashida va undan keyingi markaziy davlat tuzish uchun olib borgan qizg'in faoliyatida sufiylar faol ishtirok etgan. Tarixdan ma'lumki, Amir Temur islom dinini o'ziga xos ravishda, mutaassiblikdan holi, erkin e'tiqod deb tushungan. Uning komil e'tiqodi boshqa dinlarni rad etish hisobiga bo'lmagan va bu jihatdan u nafaqat o'z asri balki hozirgi zamon kishisi uchun ham ibratlidir.¹

Mutaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakat aholisining ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, islom dini ravnaqiga keng yo'l ochib berildi. SHu kabi boshqa din vakillari ham ateistik targ'ibot zug'midan qutulib, emin-erkin ravishda diniy marosimlarini o'tkazadigan bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov mustaqil O'zbekiston siyosatini belgilab berar ekan, dinga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish lozimligini qayta-qayta uqtiradi. YUrtboshimizning ta'kidlashicha, "Din turmush tarzimizga o'chmas muhrini bosgan. Xudoga qarshi kurashganlarning ahvoli nima kechganini ko'rdik. Endi bu xil besamar va quruq inkor yo'li yaramaydi. Dinga nisbatan ijobiy munosbat tashki siyosatimizda katta ahamiyatga ega".²

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 31, 57,61-moddalarida

¹ Komilov N. Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din.. T. "Akademiya", 2006 y 5 bet

² Karimov I.A. O'zbekiston Milliy istiqlof, iqtisod, siyosat, mafkura. T. "O'zbekiston" 1996 y.79 bet

insonlar uchun boshqa erk va huquqlar qatorida vijdon erkinligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik erki kafolatlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil xuquq erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

31-moddada "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" deyilgan.¹

Bosh qomusimizning 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas" deyilgan.²

Bu ham dunyoviy davlat tabiatidan kelib chiqadigan talab. Chunki biror bir mafkura, u hoh siyosiy bo'lsin, hoh diniy bo'lsin, davlat mafkurasiga aylansa, demokratiya bo'g'iladi, totalitarizm g'alaba qiladi. Dindagi sakral tafakkur davlat ishlari, jumladan, xokimiyatni boshqarishda ilohiylikka tayanadi va shu bois ham jamiyatda xilma-xil qarashlar bo'lishini, faol amaliyotning yo'lini to'sadi. Sakral tafakkur hokimiyatni ilohiylashtiradi. Dunyoviy demokratik davlatda esa bunga yo'l qo'yilmaydi.

Din o'z mohiyatiga ko'ra:

- iymon-e'tiqod;
- shariat, marosim, amallar majmui;
- muqaddaslik (sakral) tafakkuri;
- axloqiy-ma'naviy tarbiya;
- diniy ilmlarni o'z ichiga oladi va muayyan tizimga ega totalitar mafkurani tashkil etadi.

Dunyoviy davlat o'z tabiatiga ko'ra;

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 2014 y. 6,7,9 betlar

² O'sha joyda 5 bet

- demokratik tamoyillarga;
- sekulyar (dunyoviy) tafakkurga;
- mafkuralar xilma-xilligiga;

-xalq irodasiga tayanadi va hech bir mafkuraning mutloq ustunligiga yo'l qo'ymaydi.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi (yangi tahrir) Qonunning 5-moddasida ta'kidlanishicha, “O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalarga nisbatan biron bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi”.¹ Qonunda yana qayd etiladi: “Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlaydi”.²

Bunda davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatlarning to'rt jihatini aniq belgilangan. Bular:

- 1) Davlat diniy tashkilotlarga hech bir vazifa yuklab, uni bajarishni talab qilmaydi.
- 2) Diniy tashkilotlarning qonunga zid bo'lmagan ishlariga aralashmaydi.
- 3) Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi.
- 4) Davlat diniy tashkilotlar faoliyatini, ayni vaqtda, ateistik targ'ibot faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasida “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi” deyilgan.³

Islom Karimovning “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” nomli fundamental tadqiqotida, jumladan, bunday deyiladi:

¹ O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun (yangi tahriri). O'zbekiston ovozi. 1998 y. 23 may

² O'sha erda

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. “O'zbekiston”, 2014 y. 13 bet

Hozirgi kunda Respublikada 16 diniy konfessiya uyushmalari faoliyat yuritmoqda. Ularning bir qismi O'zbekiston uchun noan'anaviydir. Davlat ular bilan o'zaro munosabatda, o'z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda, quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini xurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqat qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish".¹

Shuni ham ta'kidlash kerakki, fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, teng huquqligini hamma erda: ishga qabul qilish, o'qishga kirish, imtiyozlardan foydalanishida to'liq rioya qilinadi, biron bir rasmiy hujjatda fuqaroning dinga munosabatini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi. Hech kimning huquqi dinga bo'lgan munosabatiga qarab cheklanmaydi. Bu qoida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (yangi tahrir) Qonunning 4-moddasida belgilab qo'yilgan.²

O'zbekistonda bir necha ming masjid, cherkov va boshqa diniy ibodatgoxlar faoliyat yuritmoqda. Har yili bir necha ming kishi muqaddas shaharlar – Makka va Madinaga haj safariga borib qaytmoqda. Bu safarlarni tashkil etish, hojilarning haj amalini ado etib eson-omon vataniga qaytishni ta'minlash davlat zimmasidadir.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin diniy bayramlar-Ramazon va Qurbon

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. "O'zbekiston", 1997 yil. 42-44 betlar

² O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) O'zbekiston ovozi. 1998 y. 23 may

hayitlari keng miqyosda muntazam nishonlanib kelinmoqda. Davlat ko'magi bilan qadimiy obidalar, qadamjolar obod qilinib, ziyoratgoh joylarga aylantirildi.

Bularning hammasi dindan oqilona foydalanish ma'rifiy-madaniy ishlarda diniy qadriyatlarni ifoda etish, din falsafasini chuqur o'rganib, ezgu xulq, ezgu so'z va ezgu amal uchun intilish, yosh avlodga dini va uning negizida shakllangan ma'naviyatni shu tarzda o'zlashtirishni o'rgatish zarurligini taqozo etadi.

Yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun 23 moddadan iborat bo'lib, ularda vijdon erkinligi huquqi, dinga munosbat va fuqarolik huquqlarining tengligi, davlatning dindan ajratilgani, davlat organlarining va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining diniy tashkilotlar bilan munosabati, din va ta'lim, diniy tashkilotlarning ta'rifi va huquqlarini, diniy o'quv yurtlari, diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish tartibi, diniy urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarining mulki, davlat mol-mulkidan foydalanish yo'llari, nashr ishlari va diniy adabiyotlarni tarqatish, diniy missionerlik, murtadlik kabi masalalarga munosabat o'z ifodasini topgan.

Shu kabi terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan diniy xarakatlar va jamoalar faoliyati taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, shuningdek, xarbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Mahfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzilishi taqiqlanadi, deyilgan.¹

Dinga bo'lgan munosabatlardagi muhim jihatlardan biri missionerlik va prozelitizmdir. Missionerlik "qayta qurish" yillari va o'tgan asrning 90 yillari boshida avj olgan edi.

Davlat tizimida ishlaydigan har bir xodim, ayniqsa, raxbarlik lavozimini

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston", 2014 y

egallagan shaxslar diniy tashkilotlar bilan muomala qilish, munosabatga kirishganda, albatta, Konstitutsiyada belgilangan vijdon erkinligiga oid moddalar hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi Qonunni puxta bilishi shart.

Diniy tashkilotlarning xorijiy mamlakatlardagi dindorlar, diniy arboblari va diniy muassasalar bilan aloqasi ham Din ishlari bo’yicha qo’mita orqali amalga oshiriladi. Masalan, O’zbekiston musulmonlar idorasi o’nlab xorijiy tashkilotlar bilan aloqa o’rnatgan.

Diniy muassasa va tashkilotlarga har xil diniy jamiyat yoki jamoalar, diniy o’quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, monastirlar, sinagogalar va boshqa shunga o’xshash ibodatxonalar kiradi. Qonunga ko’ra, bu tashkilotlar Adliya vazirligida ro’yxatdan o’tgan bo’lishi shart.

Adliya vazirligida ro’yxatdan o’tmagan diniy tashkilot faoliyat yuritish mumkin emas. Diniy tashkilot tuzish uchun (jumladan, yangi masjid yoki cherkov ochish); 1) yuz nafardan kam bo’lmagan O’zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza; 2) diniy tashkilot nizomi; 3) ta’sis yig’ilishining bayonnomasi; 4) tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat; 5) diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining nizomi; 6) ta’sis yig’ilishi bayonnomasi va boshqa hujjatlar taqdim etilishi kerak.¹

Qonunga ko’ra, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro’yxatga olish O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni ro’yxatga olish esa Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha qo’mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O’zbekistonda ta’lim dindan ajratilgan. Ta’lim tizimining biror bo’g’inida diniy darslar majburan kiritilmaydi, ammo dindan xabardor bo’lishni hohlagan odamlar ixtiyoriy ravishda o’rganishi, diniy o’quv yurtlariga kirib, bilimlarini oshirishi mumkin. O’zbekistonda bir necha diniy o’quv yurtlari faoliyat ko’rsatmoqda.

¹ Komilov N. Jo’raev K. Davlat, jamiyat va din. T. “Akademiya” 2006 y. 19-20 betlar

Diniy o'quv yurtiga kiruvchilar o'rta ma'lumotga ega bo'lishi shart. Diniy o'quv yurtlarini bitirganlar diniy tashkilotlarda xizmat qiladi.

Toshkent islom mahadini bitirgan talabalarning diplomi Vazirlar Mahkamasining 2003 yilgi qarori bilan boshqa dunyoviy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat maqomiga tenglashtirildi. Endi ular o'z bilimlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu ham hukumatimizning yoshlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikidan dalolatdir..

Bundan tashqari, Yurtboshimiz tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi xuzurida Toshkent islom universitetining tashkil etilishi ham yoshlarga nisbatan g'amxo'rlikning yana bir yorqin timsolidir. Mazkur universitet butunlay yangi tipdagi o'quv maskandir. Unda diniy ilmlar bilan barobar dunyoviy ilmlar ham o'rganiladi. Talabalar Qur'on va Hadislarni, kalom ilmi va tasavvufni o'rganadi. Shu bilan birga bu dargohda falsafa, iqtisodiyot, tarix, ingliz, arab tillari, zamonaviy informatika asoslaridan puxta bilim oladi. Universitet qoshidagi gimnaziya va litsey ham shu yo'nalishda ta'lim berib, ulug' ajdodlarimizning islom ilmi rivojiga qo'shgan hissasidan boxabar bo'ladi. Xullas, bu universitetda tahsil olgan talaba zamonaviy mutaxassis bo'lib etishadi va din asoslarini o'zlashtirish, qadimgi manbalardan bimalol foydalana oladi.

Ko'rinib turibdiki, bu borada Prezident Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan izchil va odilona siyosat o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Birinchidan, demokratik jamiyat qurish tamoyillariga mos ravishda dinga nisbatan to'g'ri munosabat belgilab olindi. Bu siyosat bozor iqtisodiyotining hayotga joriy etilishi, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot o'zaniga batamom mos keladi va davlatning dunyoviylik xususiyatini to'la-to'kis ta'minlaydi.

Ikkinchidan, davlatning dindan, dinning davlatdan ajratilgani vijdon erkinligi tamoyiliga zid emas. Aksincha aynan shunday munosabat fuqarolik jamiyatiga muvofiq ekanini hayotning o'zi har qadamda tasdiqlanmoqda.

Uchinchidan, diniy e'tiqodni har kimning o'z xususiy ishi deb e'lon qilgan davlat ayni vaqtda fuqarolar tinchligi, mamlakat osoyishtaligi, milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun barcha choralarni ko'radi, jumladan, dindorlarni ekstremist

terroristlarning xurujidan himoya qiladi. Bu tamoyil dinning siyosatlashuviga yo'l qo'ymaydi, siyosat-dunyoviy xodisa, din esa-ruhiyat tarbiyasi, ma'naviy soha ekanini ajratib ko'rsatadi.

Va nihoyat, **to'rtinchidan**, bunday siyosat dinning o'ziga ham rivojlanish imkoniyatini yaratdi, madaniy-ma'rifiy dindorlik aholi tafakkurida tobora chuqurroq o'rnashib boradi. Bu yana turli dinlar va mazhablar, ilmlarning o'zaro yaqinlashuvi, ular o'rtasida bahamjihatlik muhitini vujudga keltiradi.

1.2. Dinning jamiyatda tutgan o'rni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli kitobida din xaqida to'xtalib, XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar, inson tomonidan koinot sirlarini o'rganish, axborot olish va ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'lganini ta'kidlaydi.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi deganda nimani tushunamiz. Bu mamlakatimizdagi osoyishtalik, barqaror turmush, yurtimizning gullab-yashnashi, xalqning xur va farovon xayotga erishuvi, barkamol shaxsni tarbiyalash, ijtimoiy va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik lotinchada (tolerantia) . Bularning barchasi din masalalariga yangicha yondashish va dinning jamiyatdagi mavqeini belgilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, din davltadan ajratilgani bilan, jamiyatdan ajratilgan emas. Aksincha, din jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojiga ta'sir qilib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Modomiki, din vijdon ishi ekan, demak, u odamlar qalbi, botiniy olami, ruhiyati bilan aloqador xodisa. Odamzodning o'z-o'zini anglashi, o'zining mohiyati, yaratilishi, bu dunyodagi faoliyati, ahloqiy qarashlari ko'p hollarda din orqali amalga oshadi. Haq dunyo, Abadiy va Azaliy Parvardigorga ishonch, ulug' payg'ambarlarning nasihatlar, Qur'on, Tavrot, Injil va Avestodagi ezgu g'oyalar insonni ulug'laydi, uni ruhan bardam va baquvvat qiladi, yaxshi amallarni ado etishga undaydi.

Ikkinchi tarafdin, din, jumladan islom dini, insonni savob ishlarga hidoyat etish, poklanish, ruhiy-ma'naviy kamolotga etaklash barobarida ulkan madaniyatning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Din falsafasi, ko'p asrlik ilm-fan mevalari, haqiqat izlab riyozat chekkan so'fiylar hikmati va h.k.- bularning hammasi ulug' ma'naviy qadriyat, xalqimiz fikriy kashfiyoti, ijodiy izlanishining hosilasidirki, biz yangi demokratik jamiyat qurishda bu bebaho xazinadan oqilona foydalanishimiz, asrab-avaylashimiz va boyitishimiz zarur.

Bu o'rinda Yurtboshimiz islom dinining xalqimiz hayotida naqadar chuqur

ildizlarga ega ekanini bayon etgan. Islom biz uchun ham e'tiqod, ham qadriyat, ham ma'naviyatdir. Shunday ekan, u milliy mafkuramizda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Nafaqat islom dini, balki boshqa dinlar haqida ham shu fikrni aytish kerak, deb ta'kidlaydi Prezident.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Ammo demokratik tamoyillar asosida shakllanayotgan ushbu jamiyat milliy an'analar, milliy madaniyat negizida qad ko'tarmoqda. SHuning uchun ma'naviy kamolot, milliy ahloq me'yorlari takomilida ham dinning o'ziga xos ta'siri bor. Qur'oni karim, Hadisi shariflarda bayon etilgan insonparvarlik g'oyalari yoshlar ongiga singdirilsa va ular umumbashariy g'oyalar bilan uyg'unlashtirib borilsa, albatta, barkamol avlod tarbiyasida katta yutuqlarga erishamiz.

Din va oila, din va mahalla, din va shaxs masalalari ham ayni shu fuqarolik jamiyati talablari asosida rivojlanayotgani quvonarli hol. Insonlar o'z huquqlarini ko'proq tanigani sari ularning ijtimoiy faolligi ortadi.

Barcha dunyoviy dinlar va ayniqsa, bugungi O'zbekiston hududida VIII asrdan buyon yashab kelayotgan islom dinining tarqalishi, ularning insonlar hayotiga ta'siri, oila va jamiyatning kamol topishi, madaniy rivojlanish hamda ma'naviyatidagi o'rni haqidagi bilimlar bilan yoshlarni oziqlantirish umummilliy tarbiyaning tarkibiy qismidir.¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri va boshqa hujjatlarda aks etgan inson huquqi, turli diniy jamoalarning burch va vazifalari, din va qonunning o'zaro munosbati haqidagi bilimlarni chuqur egallash respublikamizda huquqiy demokratik jamiyat qurish asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi, o'quvchi yoshlarni qonunni hurmat qilishga o'rgatadi, faqat o'zining milliy dinini emas, balki respublikamizda istiqomat qilayotgan 130 millat vakillarining diniy e'tiqodlarini e'zozlashga undaydi. Bunday bilimlar eski uydirma va bid'atlardan xoli bo'lgan mustaqil va yangicha fikrlovchi, zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish yo'li bilan singdiriladigan aqidalar mohiyatini anglovchi shaxslarni kamol toptirish,

¹ Komilov Ayu Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. T. "Akademiya", 2006 y. 26-27 betlar

yoshlarni turli noqonuniy diniy guruh va yo'nalishlarga tortish uchun jon-jahdi bilan urinayotgan buzg'unchi mafkurachilar ta'siriga berilmaslikka chaqiradi.

Har bir fanning o'z metodologik asosi va tamoyillari bo'ladi. SHuningdek, dinshunoslik ham o'z maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun, Fuqarolik, Jinoyat va Oila kodekslaridagi vijdon erkinligi haqidagi modda va ko'rsatmalar, respublikamiz Prezidentining farmonlari va yuqori tashkilotlarning tavsiyalari, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga tayanadi. Bundan tashqari, dinshunoslikni o'rganishda Avesto, Tavrot, Zabur, Konfutsiy ta'limoti, buddaviy adabiyotlardan namunalar, Qur'oni karim va Hadisi sharifdan keng foydalaniladi. Dinshunoslik fani boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq ravishda o'rganiladi.

Bu fanni o'rganishdan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil 6 apreldagi milliy istiqlol g'oyasi kontseptsiyasini yaratish bo'yicha so'zlagan nutqidan oziq oladi. Nutqda ta'kidlanganidek, biz o'z hayotimizni ajdodlarimiz dini, jumladan, islom dinisiz tasavur qila olmaymiz. Bu-isbot talab qilmaydigan xaqiqat.

Toki har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman, dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasida mo''tadil munosbat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak.¹

Avvallari din haqida biror narsa yozish yoki bugungidek, katta jamoa oldida u haqida va'z aytish ma'ruza qilish amri mahol edi. Mustabid tizim bunga yo'l qo'ymasdi. Dinga qarshi yozish yo uni qoralab gapirish aksincha, rag'batlantirilar edi.

Dinlar tarixi ayovsiz tanqidga loyiq bo'lgan adashishlar tarixi sifatida talqin qilinib kelindi.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovardmaqsadimiz. 8 jild. T. "O'zbekiston", 2000 y. 503 bet

Mutaxassislar-jamiatshunos o'qituvchilar, diniyi madaniyatni o'rganuvchilar va targ'ibotchilar o'sha davrda hukm surgan mafkuraviy sharoitiga moslashishiga to'g'ri keldi.

Din va qonunning o'zaro munosabatlarini to'g'ri tushunish demokratik jamiyat asosini mustahkamlaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni turli diniy jamoalar a'zolarining huquqlari haqida etarli ma'lumot beradi. Bu muhim hujjatlar o'quvchi-yoshlar bilimi va zakovat qudratini oshiradi, ularning haq huquqlari va burchi nimada ekanini belgilab beradi, qonun kuchini sezish, o'zi va atrofida qilishni xurmat qilishga o'rgatadi, o'z fikrini zo'rlik bilan boshqalarga singdirishga urinish noqonuniy harakat ekanini uqdiradi.¹

Din har tomonlama kamol topayotgan shaxsni shakllantirishda xizmat qiluvchi ma'naviy-ahloqiy kuch, u "adolat tuyg'usi, o'z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o'zganing mol-mulkiga ko'z olaytirmaslik, xaromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi xalqimizga xos bo'lgan ezgu tushunchalar bugungi kunda ham ma'naviy hayotimiz asoslarini tashkil etadi". (I.Karimov)

Dinga berilayotgan ta'riflar qanchalik ko'p qirrali bo'lmasin, eng muhimi bu e'tiqod hissi, insondagi eng noyob va eng go'zal ehtiyojdir.

Sotsiologiya- ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan yondashilsa, din- jamiyat uchun eng zarur, ijtimoiy hayotning ajralmas qismidir. Shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy vazifalarini ham qayd etish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilar:

1. Ruhiy madadkorlik xususiyati. E'tiqodli inson din va uning ta'limotiga ishonar ekan, uning ta'sirida hayotda uchrab turadigan adolatsizlik, g'am-g'ussa, ijtimoiy nosozlik, siyosiy kamsitishlardan xoli bo'lishiga intiladi. SHu maqsadda turli diniy udum va marosimlar amalga oshiriladiki, undan keyin kishi ma'lum darajad engil tortadi, ruhan oziq oladi. Buddaviylik va sufiylik ta'limotiga darveshlik targ'ib qilinadi. Rohib (monax)lar ham, darveshu qalandarlar ham bu o'tkinchi dunyo lazzatlarini tan olmaganlar. Buddaviylikka nirvanaga,

¹ Kamilov N, Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. T. "Akademiya", 2006 y 32-33 betlar

tarkidunyochilik, darveshlikda o'z e'tiqodining haddi a'losiga erishganda ular o'zlarini ilohiy rohat-farog'atda sezishgan. Nasroniylar Iso a-sning yana qaytishiga astoydil ishonadi va sabot bilan hayotdagi tushkunliklarni engishga urinadi. Musulmonlar bu dunyoda ro'yobga chiqmagan moddiy va ma'naviy ehtiyojlari u dunyoda amalga oshishiga ishonadi. SHuning uchun ham haqiqiy musulmon kishi u dunyo umidi bilan yashaydi.

2.Birlashtiruvchilik xususiyati. Din odamlarni yagona dunyoqarash doirasida birlashtiradi. U amaldagi qonun-qoidalar, me'yor va tartiblarni muqaddas deb biladi va odamlarni ijtimoiy, g'oyaviy va siyosiy jihatdan birlashtirishga xarakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida bu sa'y xarakat etnotsentrizm hodisasida ifodalangan, ya'ni yagona e'tiqod, udum, odat, marosimlar tizimiga amal qiluvchi har qanday etnik jamoa faqat o'z turmush tarzini tan olgan va undan chiqish yoki voz kechish qattiq gunoh hisoblangan. Masalan, yahudiy dini o'z dindoshlarini yagona mafkura atrofida jipslashtirib turush uchun o'zlarini yaxlit milltaga mansub, e'tiqodi, dunyoqarashi bir, muqaddas iloh Yaxvening suyukli bandlari ekanini ta'kidlaydi. Nasroniylik dini e'tiqod qiluvchilarning safini yanada mustahkamlash maqsadida diniy me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va san'atning boshqa turlaridan keng foydalanadi. Dunyoda birqancha maxsu ikonanavislik san'ati maktablari mavjud. Diniy yoki etnik jihatdan mayda xalq uzoq muddat mutlaqo begona muhitda yashaganida dinning birlashtiruvchilik vazifasi muhim o'rin tutadi. SHunday vaziyatda, odatga ko'ra, masalan, Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniyadagi musulmonlar, Livandagi nasroniylar, Toshkentdagi ukrainlar, Buxorodagi yahuddiylar, Andijondagi ruslar diasporasi kabi barqaror etnokonfessial, ya'ni dindosh jamoalar vujudga keladi.

3.Ekzistentsial xususiyati. Dinning bu vazifasi falsafa sohasiga tegishli bo'lib, din nazariyachilari tomonidan ilgari surilgan insonning bu dunyodagi kechgan umri, u dunyoda uni nima kutayotganligi, bu bilan birga, hayot va o'lim, borliq va yo'qlik to'g'risidagi qarashlarni o'rganadi.

4.O'rta asrlarda dinning siyosiy xususiyati ham namoyon bo'lib, bu amaldagi

hokimiyatni muqaddaslashtirish, davlat boshlig'ini, masalan, "podshoh-xudoning erdagi soyasi" deb ilohiylashtirishda, uning dohiyona maxsus xuquqlarga egaligini belgilashda namoyon bo'lgan. Hozirgi paytda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilayotgan mamlakatlarda dinning bu xususiyati yo'qoldi. Chunki dinning siyosatga aralashtirish, siyosiyashtirish salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

5. Me'yoriy xususiyat dindorlarning muayyan dinning jamiyatdagi o'rni haqida shakllangan qarashlar tizimi bo'lib, kishilarning e'tiqodi, oliy maqsadlari, ezgu niyatlarini ifodalaydi. Bu vazifa dinning axloqiy, hayotiy va mafkuraviy masalalaridan kelib chiqadi. Uning amaliy ahamiyati insonlarning yurish-turishi, xulqi-atvori, hayotga munosabati, qiziqishlari, turmushi va mehnatiga ta'sir ko'rsatishda bilinadi. Ahloq va xuquq yoki qonun singari din kishilar hayoti va faoliyatining barcha tomonlariga ta'sir etadi.

Dinning paydo bo'lishi haqidagi masala ikki xil talqin etiladi; tabiiy-ilmiy ta'limotga ko'ra, insoniyat ma'lum davrgacha dinning nimaligini bilaman, u faqat paleolit davrida, bundan 20-40 ming yil muqaddam vujudga kelgan. Ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra, dinning paydo bo'lishi odamning yaratilishi bilan bog'liq.

Dindorlarning soni, miqyosi, u yoki bu millat yo elatga mansubligidan qat'i nazar, dinlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Urug' qabilaviy dinlar. Ular butparastlik, animizmga asoslangan bo'lib, odamlar sehrgarlar, shomonlar va qabila boshliqlariga sig'ingan. Bu din turlari barcha milliy va dunyoviy dinlarga mansub bo'lib, hozir Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikada yashayotgan qabilalar hayotida saqlanib kelmoqda.

2. Milliy dinlar. Ular aniq bir millatga xos bo'ladi. Masalan, yahudo dini-yahudiylar dini, hinduylar dini - xindlar dini, konfutsiylik-xitoyliklarga xos, sintoizm-yaponlarning dini.

3. Jahon dinlari. Bular dunyoda keng tarqalgan buddaviylik, xristianlik va islom dinlaridir.

Bundan tashqari, dinlar ta'limotning mazmun-mohiyatiga ko'ra, monoteistik (iudaizm, xristianlik va islom kabi yakkaxudolikka asoslangan) noliteistik (xinduiylik kabi ko'pxudolilikka asoslangan) va xudosiz (buddizm,

konfutsiychilik) bo'ladi.¹

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir".²

Mamlakatimiz tarixan ko'p millatli o'lka bo'lganligi tufayli bu zaminda turli-tuman din vakillarining emin-erkin yashashlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Yurtimizdagi boshqa tashkilotlar qatori diniy jamoalar ham jamiyat taraqqiyotida tobora faol ishtirok etib, xalqimizning ma'naviyati va qadriyatini tiklash, o'zligimizni anglash, eng asosiysi, mustaqilligimizning mustahkam va boqiy bo'lishiga hissalarini qo'shmoqdalar.

¹ Kamilov N, Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. T. "Akademiya", 2006 y 36-37 betlar

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T "Ma'naviyat" 2008 y 36 bet

II. Bob O'zbekistonda olib borilayotgan diniy bag'rikenglik siyosatining mohiyati

2.1 Mustaqillik yillarida respublikada diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi

Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi. Iymon-e'tiqodimiz o'zimizga qaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarga karvonboshi xurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ekanini har daqiqa eslab turishimiz lozim. Prezidentimiz ma'naviyat va ma'rifatga oid nutq, ma'ruza va asarlarida islomning ma'naviy-ahloqiy, ma'rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o'rni ahamiyatini muntazam uqtirib kelmoqdalar.

Xususan bu masalalarga Prezidentimiz Islom Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat" to'plami, "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari", "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shatlari va taraqqiyot kafolatlari", "Alloh qalbimizda, yuragimizda", "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz", "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" kabi asar va risolalarda javob topishimiz mumkin.

Eng muhimi, mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarda islomiy qadriyatlarni tiklashdek ezgu maqsad yo'lida hamma uchun ibrtali va xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda so'z yuritganda Toshkent shahrida joylashgan Qur'oni karimning eng qadimiy va mo'tabar nushalaridan biri bo'lgan mashhur Usmon Qur'oni saqlanayotgan Hazrati Imom majmuasida amalga oshirilgan keng ko'lamli qayta tiklash va ta'mirlash, qurilish ishlarini eslash, Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Motrudiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduholik G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg'onadagi Ahmad Farg'oniy va Burg'oniddin Marg'inoniy yodgorliklari, Surhondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan qal'a, Shahrisabzdagi Dorul-tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Qosim shayx maqbarasini aytish mumkin. Bu amalga oshirilgan ishlar xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviyatning yuksalishida katta

ahamiyatga egadir.

Ona zaminimizda yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni qayta tiklash va ko'z qorachig'idek asrab-avaylashdan ko'zlangan maqsad, "ertaga bizning o'rnimizga keladigan, biz boshlagan olijanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo'lgan yoshlarimiz ana shu bebaho ma'naviy boylikdan bahramand bo'lsin, shu asosda o'zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanligini anglab etsin".¹

Ma'naviy merosimizni tiklash borasida keng ko'lamda olib borayotgan ishlarimiz natijasida islom va islomiy qadriyatlar ma'naviy-ma'rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi. Prezident Islom Karimov so'zi bilan aytganda ; "Biz islom dini ota-bobalarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz.. Dinga hurmat va e'tiqod-biz uchun o'lmas qadriyatlar".²

Istiqlol o'zbek xalqi uchun cheksiz imkoniyatlar eshigini ochdi. Uning xalqimizga bergan baxt-saodatining had-hududi yo'q. Buyuk ne'mat-mustaqillikning din ahliga ko'rsatgan ta'siri yanada ulkan. Istiqlol tufayli dinimiz va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi.

Hur diyorimiz musulmonlari mana 24 yildirki, mustaqillik sharoitida erkin nafas olayotganliklaridan Alloh taolaga cheksiz minnatdorchilik izhor qilib doimiy ravishda hamdu sanolar aytyaptilar. Vatanimiz mustaqilligi yildan-yilga mustahkamlanib, O'zbekistonimiz xalqaro miqyosda o'zining munosib o'rnini egallab, xalqimiz turmush darajasi, el-yurt farovonligi yanada ravnoq topmoqda. Ayniqsa, hukumatimiz rahbariyati musulmonlarning diniy marosimlarini, ibodatlarini emin-erkin ado etishlari uchun lozim bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Asrlar davomida butun dunyoga allomai zamonlarni etishtirib bergan, ham diniy, ham dunyoviy ilm sohalarida etuk olimlarni tarbiyalagan madrasalar

¹ Karimov I.A. O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining yuksak e'tirofi. "Kuch-adolatda" gazetasi. 2007 y. 23 fevral

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. Toshkent. O'zbekiston, 2000. 26 bet

eshigiga mustabid tuzum davrida qulf osildi, bilim maskanlari turli tsexlarga aylantirildi.

Ayni shu davrda haj safariga borish ham juda qiyin bo'lib, safar ijazati nihoyat darajada cheklangan edi. Taassufki uzoq yillar davomida diyorimiz musulmonlarining bu yo'ldagi orzu-niyatlariga etarli darajada e'tibor berilmadi.

Alloh taologa beadam shukrki, istiqlool sharofati bilan yurtodoshlarimiz eminerkin, yaratilgan qulay sharoitda va bevosita davlat ko'magi ostida Muborak Baytni ziyorat etish baxtiga muyassar bo'ldilar. O'tgan yillar maboynida xukumatimiz tomonidan haj ziyoratiga boruvchilarga muntazam yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Har yili 5 mingdan ziyod fuqarolarimiz eng qulay sharoitlarda haj safariga borib, Islom dinining beshinchi arqonini ado etib qaytmoqdalar.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan quvonchbahsh voqealardan yana biri-Islom dini rivojiga munosib ulush qo'shgan buyuk allomalar xotirasini abadiylashtirish borasidagi xayrli ishlardir. O'tgan qisqa davr maboynida ko'plab buyuk allomalarimizning tavallud sanalari tantanali tarzda nishonlandi. Ularning hoki poklari mangu qo'nim topgan go'shalar obod etilib, ziyortagohlar barpo etildi.¹

Istiqlool ilm maskanlari eshiklarini yoshlarga ochib berdi. Mustabid tuzum davrida faqatgina Toshkent islom oliy ma'hadi va Buxorodagi "Mir Arab" madrasasigina cheklangan sharoitlarda faoliyat yuritishga ruxsat etilgandi. Yurt istiqloolga erishgach, diniy ta'lim maskanlari soni o'ndan oshib ketdi.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston musulmonlar idorasi respublikadagi musulmonlarni birlashtirib turuvchi, ularga ma'naviy rahbarlik va homiylik qiluvchi katta nufuzga ega bo'lgan rasmiy diniy tashkilotdir.

Dastlab, "O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati" deb yuritilgan ushbu idora 1943 yil 20oktabrda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmon ulamolari vakillarining 1-qurultoyida ta'sis etilgan.

Hozirda O'zbekiston musulmonlari idorasi diyorimiz musulmonlariga Islom ahkomlarini to'g'ri etkazish hamda diniy sohada olib borilayotgan islohotlarga,

¹ Alimov U. Istiqlool bergan chiroq. Islom nuri. 2009 y. 5 avgust

masjid va madrasalar faoliyatiga bevosita raxbarlik qilmoqda. Mustaqillik yillarida mazkur nufuzli idoraning faoliyati ko'lamini yanada kengaytdi.

Mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida imom-xatiblar olib borayotgan ibratli ishlarni namoyish etish bilan birga diyorimizda faoliyat kursatayotgan masjid imom-xatiblarining bilim darajasini sinovdan o'tkazish maksadida «Eng namunali imom» kurik-tanlovi joriy etildi. Chunki, zamon talabi xar bir imom-xatibni ijtimoiy xayotda faol bo'lib, dunyoviy bilimlardan, turli vokea xodisalardan boxabar bo'lib turishlarini takozo etmokda. Xozirgi imom-xatiblar bundan o'n besh - yigirma yil ilgarigi imom-xatiblardan tubdan farq qilishi kerak. Shuning uchun ular har tomonlama etuk. ham diniy, xam dunyoviy ilmlarni puxta bilgan, xuquqiy. ijtimoiy masalalarda xam tegishli ma'lumotga ega bo'lgan peshqadam, ilg'ror kishilar bo'lmog'i lozim. Imom-xatiblarimizdagi ana shu jihatlarini aniqlashda ushbu ko'rik-tanlovning ahamiyati juda kattadir.

Shuningdek, joylarda hozirgi kunda oqsoqol imom-xatib va mahalla noziri xamkorligida ish olib borilishi natijasida, oilalarimiz tinchligi va farovonligi, mahalla-kuy obodligi ta'minlanmoqda.

Har yili O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida qorilar musobaqasi o'tkazish an'anaga aylangan. Unda g'oliblikni qo'lga kiritgan yosh qorilarimiz dunyo miqyosida o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarda ham ishtirok etib, yuqori o'rinlarni egallab, yurtimiz sharafini yuksaklarga ko'tarmokdalar. Toshkentga islom madaniyatining poytaxti maqomining berilishi xukumatimizning islom madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida amalga oshirayotgan xayrli ishlarining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishidir.

Islom madaniyati zohiriy va botiniy ko'rinishlarga ega. Zohiriy deganda, masjиду madrasalar, marosim va turli tadbirlar tushunilsa, botiniy ma-daniyat deganda, har bir musulmonning imon-e'tikodi, dunyoqarashi, xulq-atvori va o'zgalar bilan bo'ladigan muomalasi kabi ma'nolarni anglaymiz.

Zohiriy madaniyatda ham, botiniy madaniyatda ham bizning diyorimiz doimo peshqadam bo'lib kelgan, hech bir mamlakatdan ortda qolmagan. Buning isboti

sifatida Samarkand, Buxoro, Xiva, Urganch, Qarshi, Shaxrisabz, Termiz, Fargona, Toshkent va boshqa viloyat, shahar va tumanlarda mag'rur qad ko'tarib turgan islom obidalarini ko'rsatish mumkin. Ularning sharqona shaklu bezaklari, nakshu bitiklari va ulug'vor hashamati asrlar davomida dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Mustaqillik sharoitida ushbu an'analar qay- tadan hayotga qaytmokda, bundanda muhimi ularni davom ettira oladigan yangi avlod dunyoga kelmoqda. Xozirgi kunlarga ta'mirlangan va yangidan qurilgan ulkan inshootlar buning yorqin isootidir.

Ayniksa, Prezidentimiz tashabbuslari bilan ta'mirlangan Buxorodagi Masjidi kalon, Samarqanddagi Shoxizinda, Qarshidagi Ko'k gumbaz va qayta qurilgan Imom Buxoriy yodgorlik majmui, Bahouddin Naqshband, Abdulxolik, G'ijduvoni, Burxoniddin Marg'inoniy kabi buyuk allomalarimizning maqbaralarini ziyorat qilgan har bir kishining ko'ngli yayraydi. Istiklol ne'mati bois, alxamdulilloh, yurtimizning har bir go'shasi kundan-kunga yangicha chiroy ochmoqda Qad rostlayotgan zamonaviy inshootlar, obod etilayotgan ziyoratgohlar yurtimiz go'zalligiga yanada ko'prok fayz baxsh etmoqda. Buyuk allomalarni dunyoga xadya etgan ushbu Vatanga bo'lgan muhabbatimizni yanada ziyoda qilmokda.

Dunyoning turli mamlakatlaridan kelayotgan sayyoxlarning diqqat markazida turgan poytaxtimizdagi Xazrati Imom majmui shu kunlarda alohida ahamiyat kasb etdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Xalqimiz ma'naviy merosining muhim qismi bo'lgan bu muborak qadamjoning tariximiz, ma'naviy hayotimizdagi urni va ahamiyatini inobatga olgan holda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan keng ko'lamli ta'mirlash, qurilish va obodon- lashtirish ishlari amalga oshirildi. Majmua tarkibiga kirgan tarixiy obidalar - Kaffol Shashiy maqbarasi, Baroqhon va Mo'yi Muborak madrasalari, Namozgoh va Tilla shayx masjidlari asl tarovatini saqlagan holda obod etildi. Shuningdek, majmua markazida O'zbekiston musulmonlari idorasining yangi binosi hamda Qush gumbazli, ikki minorali muazzam masjid qad rostladi. Ushbu betakror inshoot nafaqat poytaxtimiz, balki butun yur- timizdagi eng yirik masjid buldi. Xozirda ana shu Xazrati Imom

masjidida mo' min-musulmonlar qulay sharoitlarda ibodat qilmoqdalar.

Islom madaniyatining nozik bir ko'rinishlari borki, ular bilan bizning xalqimiz alohida faxrlansa arziydi. Mehmonnavozlik, kamtarlik, andisha, zo'aro izzat-hurmat, mexr- oqibat, silai rahm kabi umum- insoniy qadriyatlarkim, bu fazilatlarning asosiy manbai Qur'oni karim oyatlari va xadisi shariflardir. Bizning xalqimizdagi bu kabi xususiyatlarni xorijiy mamlakatlardan yurtimizga tashrif buyurib, mehmon bo'lib ketgan din va davlat arboblari e'tirof etib, tahsinlar aytganlarida barchamiz alohida g'ururlani- shimiz tabiiy holdir.

Bularning barchasi millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimiz qalbida o'zining ozod va obod diyori bilan faxrlanish hissini, Vatanga muhabbat tuyg'ularini yuksaltiradi. Bu tuyg'u istiqlol ayyomi ara- fasida bo'lib o'tadigan madaniy- ma'rifiy tadbirlarda, shukuhli bayram shodiyonalarida yanada yorqin tarzda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimizda dinlararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmokda. Mamlakatimizda vijdon erkinligi va dinny tashkilotlar to'g'risidagi qonun qabul qilinib, diniy bag'rikenglik fuqarolar totuvligining muxim omillaridan biriga aydandi Mustaqillik yillarida din mavzuida qator simpoziumlar, chunonchi, muhim sanalar, butun dunyoga mashxur mutafakkir allomalarimizni yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazildi.

Islom dinining boy merosini chuqur o'rganish maqsadida 1995 yil Toshkentda Islom tadqiqotlari xalqaro markazi tashkil etildi. 1999 yil aprelida Prezident Islom Karimovning "Toshkent islom universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. 2007 yilda ta'lim, fan va madannyat sohasidagi xalqaro Aysseko tashkiloti tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti, degan yuksak nomga sazovor bo'ldi. Toshkent shahridagi Xazrati imom majmuasi, Toshkent islom universitetida qiska vaqt davomida amalga oshirilgan ishlar yana bir karra o'zbek xalqining bunyodkorlik salohiyatini butun dunyoga namoyon etdi.

Ma'lumki, "din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak ideallar, xaq va xaqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida

mustaxkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir".

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, xayot ma'nosini anglash, milliy ma'naviyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimiz, insoniylik, mehr oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mexr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlarini bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelmoqda.

2007-yilda Toshkent shaxri "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon kilindi.

2008-yil 14-15 avgust kunlari Toshkent va Samarkand shaharlarida xorijlik va mahalliy ulamolar, olimlar va keng jamoatchilik ishtirokida "O'zbekistonning islom tsivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi" mavzuidagi xalkaro konferentsiya;

13-14 noyabr kunlari Samarkand va Buxoro shaxarlarida "O'zbskiston - islom dunyosinnpg buyuk mutafakkirlari yurti" mavzuidagi anjuman tashkil etildi.

1993 yil sentabr oyida Baxouddin Naqshbandning 675 yilligi nishonlandi. 1995 yil noyabr oyida Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi va Najmiddin Kubroning 850 yilligi nishonlandi.

Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasiniig 125 yilligi munosabati bilan 1996 yil 9-12 noyabr kunlari tantanali tadbirlar o'tkazildi. Tantanalarda cherkov tarixida ilk bor Moskva va Butun Rus Patriarxi Aleksiy II Markaziy Osiyo hududiga tashrif buyurdi. 1996 yil 17 dekabr kuni O'zbekistan Evangel-lyuteran jamoasi Markaziy Osiyodagi yagona lyuteran Kirxasining 100 yilligini nishonladi.

1998 yil oktabr oyida Imom al-Buxoriyning hijriy taqvim bo'yicha 1225 yilligi nishonlandi.¹

2000 yil noyabr oyida Imom Abu Mansur al-Moturidiyning 1130 yilligi va Burxoniddin al-Marg'inoniyning 910 yilligi nishonlandi. 2001 yil 25-26 noyabr kunlari Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasiniig 130-yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish va ilmiy konferentsiya o'tkazildi. 2002

¹ Norbaeva T, Quronov M. O'zbekiston 18 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.2009y.31-32 betlar

yilda Rim-katolik cherkovi katoliklikning Markaziy Osiyoda kayta tiklanganligiga 100 yil to'lishi munosabati bilan bayram tadbirlari tashkil etdi. 2003 yil 5 oktabr kuni Samarqand shahrida Arman Anostollik cherkovi qurilganligining 100-yilligiga bag'ishlangan tantanalar o'tkazildi.

2003 yil noyabr oyida Abduxolik G'ijduvoniyning 900 yilligi nishonlandi.

2003 yil 27 dekabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasining 60 yilligi nishonlandi.

2004 yil dekabr oyida Xoja Axror Valiyning 600 yilligi nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning maxsus farmonlari bilan Kurbon va Ramazon xayitlarining birinchi kunlari dam olish kunlari deb e'lon qilindi.

1992 yil 2 aprel kuni Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

1999 yil 7 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. 2003 yilda birinchi bakalavr-talabalar, 2005 yilda esa birinchi magistr-talabalar o'qishni yakunladilar. Universitet qoshida akademik litsey va maktab- gimnaziya faoliyat ko'rsatmoqda.

2003 yil 11 avgust kuni Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Toshkent Islom universiteti bitiruvchilarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2003 yil 22 avgust kuni Vazirlar Maxkamasining "Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim ishlarini va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2003 yil 17 sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Buxoriy yodgorlik majmuini asrab-avaylash va yanada obodonlashtirish, alloma merosini o'rganish va targ'ib qilish ishlarini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

2004 yil 27 may kuni Vazirlar Maxkamasining "Baxouddin Nakshband yodgorlik majmuasi markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2004 yil 16 iyul kuni Vazirlar Maxkamasining "Shoxi Zinda yodgorlik majmuasida kayta tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2006 yil 28 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Haj va Umra tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha Jamoatchilik kengashi tuzish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.

2007 yil 8 iyun kuni Vazirlar Maxkamasining "Usmon Musxafi"ni talab darajasida saqlashni ta'minlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 may kundagi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasining Saudiya Arabistonidagi Bosh konsulligi tarkibida Haj va Umra masalalari bilan shug'ullanuvchi attashe lavozimi tashkil etildi.

2008 yil 23 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

2008 yil 7 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston musulmonlari idorasi xuzurida muqaddas qadamjolarni saqlash va obod etish xayriya jamg'armasini tashkil qilish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

2002 yil 30 may kuni Navoiy shahrida Rus Pravoslav cherkovining tantanali ochilish marosimi o'tkazildi.

2004 yil 22-23 mart kunlari Frantsiyaping Parij shahrida "O'zbekiston va Frantsiyada diniy bag'rikenglik" va "O'zbekiston va Frantsiya xalqaro munosabatlar tizimida" mavzularida xalkaro konferentsiyalar o'tkazildi.

2004 yil 3-10 oktabr kunlari AQSH ning Vashington shahrida R.Nikson markazi tomonidan tashkil etilgan "Davlat va din, konfessiyalararo bag'rikenglik: O'zbekiston misolida" mavzusida konferentsiya bo'lib o'tdi.

2007 yil 31 may kuni Buyuk Britaniyaning London shahrida "Uch din forumi" xalqaro tashkiloti tomonidan tashkil etilgan "Konfessiyalararo totuvlikka erishishda O'zbekiston tajribasi" mavzuidagi seminar uyushtirildi. 2001 yil 30 mart

¹ Norbaeva T Qurinov M. O'zbekiston 18 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T.2009 y. 33 bet

kuni O'zbekiston Bibliya kitob jamiyati tomonidan amalga oshirilgan "Sulaymonning xikmatlarn kitobi"ning o'zbekcha tarjimasi taqdimot marosimi o'tkazildi.

Mustakillik yillarida respublikamizda Kuron (uch marta), Kadimgi Ahdning 16 kitobi va Yangi Ahd to'laligicha o'zbek tiliga o'girilib, nashr etildi. 2002 yil 12 iyun kuni Rim-katolik cherkovida "Katolicheskaya entsiklopediya"ning, 2004 yil 2 iyul kuni Toshkent Islom universitetida "O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan tashkil etilgan "Islom" entsiklopediyasi taqdimot marosimlari o'tkazildi.

2004 yil 21 dekabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasida Respublika Ko'rlar jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan Brayl yozuvidagi Qur'oni karim kitobi taqdimot marosimi o'tkazildi. O'zbekiston mazkur xayrli amaliyotni amalga oshirgan jahonning uchinchi mamlakati bo'ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda 24 mingga yaqin ko'zi ojizlar istiqomat qilmoqda. Endilikda maxsus maktab-internatlar, kutubxonalar hamda barcha istak bildirganlar mazkur Kur'ondan foydalanishlari mumkin.¹

Davlatimiz rahbari Islom Karimov rahnamoligida e'tiqod erkinligini ta'minlash, milliy va diniy qadriyatlarni tiklash hamda rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosini o'rganish, muqaddas qadamjolarini ta'mirlash hamda obodonlashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va bu ishlar izchil davom etmoqda. Prezidentimizning kuni kecha qabul qilingan "Ramazon xayitini nishonlash to'g'risida"gi qarori buning yana bir amaliy ifodasidir. Milliy qadriyatlarimizni, ezgu an'- analarimizni, dinu diyonatimizni tiklash Yurtboshimiz tashabbusi bilan hali sobiq mustabid tuzum xukmronlik qilayotgan kezlarda boshlangan edi.

Istiqlolimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda yashab, mehnat qilayotgan turli din va konfessiya vakillarining e'tiqod erkinligini ta'minlash uchun keng yo'l ochilishi davlatimiz rahbari tomonidan yuritilayotgan adolatli siyosatning amaldagi natijasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Vijdon

¹ Norbaeva T. Qur'onov M. O'zbekiston 18 yil mustaqil taraqqiyot yo'lila. T. 2009 yil 34 bet

erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda har bir inson hoxlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik xuquqiga ega ekani, diniy qarashlarni majburan singdirishga yul qo'yilmasligi qat'iy belgilangani yurtimizda jamiyatning barcha a'zolari o'rtasidagi tinch-totuv hayotni, diniy erkinlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz rahbarining tashabbusi va rahnamoligida buyuk allomalarimizning qadamjolari, tabarruk maskanlarda keng ko'lamli ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Buyuk ajdodlarimizning yubiley sanalari keng miqyosda nishonlandi.

Yurtboshimiz rahnamoligida dinimizning muhim amallaridan biri – Haj ibodatini ado etishga keng yo'l ochilgani yurtdoshlarimizning bu boradagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lmoqda. Istiqlol yillarida minglab yurtdoshlarimiz muborak haj ziyoratiga borib kelish sharafiga muyassar bo'ldilar. Davlatimiz tomonidan ularning emin-erkin ibodatni to'liq ado etib, Vatanimizga sog'-salomat qaytib kelishi uchun barcha sharoit yaratib berilmoqda.¹

Mamlakatimizda insoniyatni bag'rikenglik, poklik va mehr-oqibatga chorlovchi muqaddas dinimizii asrab-avaylash, yosh avlodni xalqimizning milliy va diniy qadriyatlariga hurmat- ehtirom ruhida tarbiyalash, allomalar asarlarini tadaqiq qilish va ularni yosh avlodga etkazish muhim masalalardan biri sifatida belgilangan. Zamonaviy ta'lim bilan bir qatorda, diniy ta'lim tizimini takomillashtirish, puxta bilimga ega, sog'lom fikirli mutaxassislarni tayyorlash doimiy e'tiborda. Toshkent islom universiteti va Toshkent islom institut, o'rta maxsus diniy ta'lim berishga ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda minglab yigit-qizlar zamonaviy shart sharoit, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida diniy va dunyoviy fanlardan sabok, olmoqda. Davlatimiz rahbarining 2008 yil 23 may kuni qabul qilingan qaroriga muvofik, Imom Buxoriy xalqaro markazining tashkil etilishi islom tarixi va falsafasi, allomaning ilmiy merosini xalqaro miqyosda o'rganishda muhim o'rin tutmoqda.

Mamlakatimizda xalqimizning milliy va diniy bayramlari munosib tarzda

¹ To'raqulov O. Bag'rikenglik sahoqat, mehr-oqibat ayyomi. Xalq so'zi. 2010 y 9 sentabr

nishonlab kelinmoqda. Prezidentimizning “Ramazon hayitini nishonlash to’g’isida”gi qaroriga muvofiq yurtimizda ushbu muborak ayyom bu yil ham ko’ta- rinki ruxda bayram qilinadi. Ramazon hayiti xayrli maqsad va ezgu amal bayramidir. Ayyomni yurtimizda mexr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, himmat va sahovat kabi azaliy an’analarimiz yanada mustahkamlanayotgan sharoitda ko’tarinki ruxda kutib olayotganimiz quvonarlidir.

Shunday muborak kunlarda ota-onalarimiz, aka-ukalarimiz, oilamiz va farzandlarimizni ulug’ ayyom bilan qutlashimiz, yoru do’stlarimiz, qo’ni-qo’shnilarimizni yo’qlashimizning savobi katta. Ramazon hayiti gina-quduratlarni unutish, dardmandlar ko’nglini olish, tabarruk otaxon-onaxonlarni ziyorat qilib, ehtiyojmandlar, etim-esirlarga xayru ehson ulashadigan saxovat ayyomidir.

Shu bois yurtimizdagi ziyoratgoxlar, muqaddas qadamjolar, qabristonlar yana bir bor tartibga keltiriladi. Ularning tevarak-atrofi obodonlashtirilib, ziyoratchilar tashrifi uchun sharoitlar yanada yaxshilanadi. Xayit kunlari mamlakatimizning har bir tuman mahalla, ovul va qishloqlarida yashovchi yordamga muhtoj nogironlar, yolgiz keksalar, boquvchisini yo’qotgan kam ta’minlangan oila, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat faxriylari nuroniylar holidan xabar olinadi. Mehribonlik, Muruvvat va Saxovat uylriga moddiy va ma’naviy yordam ko’rsatiladi.¹

Muborak Ramazon haytining joylarda tartibli va yuksak saviyada, xalqimizning milliy qadriyatlariga mos ravmshda o’tishi, yurtdoshlarimiz ibodatlarini to’la-to’kis ado etishi uchun tegishli idoro tashkilotlar tomonidan texnik va xavfsizlik choralari ko’rilgan. Xayit nomozi o’qiladigan masjidda texnik holatini mos ravishda tashkil etish, yong’in xavfsizligini ta’minlash, yo’l xarakati qoidalariga qat’iy rioya qilish chora- tadbirlari belgilanmoqda.

O’zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufida quyidagi ta’lim muassasalari faoliyat ko’rsatmoqda.

1.Toshkent islom instituti

¹ To’raqulov O. Bag’rikenglik sahoqat, mehr-oqibat ayyomi. Xalq so’zi. 2010 y 9 sentabr

- 2.Ko'kaldosh o'rta maxsus islom bilim yurti
- 3.Mir arab o'rta maxsus islom bilim yurti
- 4.Mulla qirg'iz o'rta maxsus islom bilim yurti
- 5.Sayyid Muhyiddin mahdum o'rta maxsus islom bilim yurti
- 6.Xoja buxoriy o'rta maxsus islom bilim yurti
- 7.Jo'ybori Kalon ayol-qizlar o'rta maxsus islom bilim yurti
- 8.Faxriddin ar-roziy o'rta maxsus islom bilim yurti
- 9.Muhammad al-Beruniy o'rta maxsus islom bilim yurti
- 10.Hadicha Kubro ayol-qizlar o'rta maxsus islom bilim yurti

Bu ilm dargohlarida islom ta'limotining mazmun-mohiyati o'qitilmoqda.¹

Istiqlol xalqimizning boy va buyuk ma'naviyatini qayta tikladi. YUrtimizda tug'ilib voyaga etgan va yirik donishmand darajasiga ko'tarilib, jahon ilm fani rivojiga munosib hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning diniy, falsafiy va ilmiy merosidan bugun mustaqilligimiz tufayli bahramand bo'ldik.

Bu qadimiy diyorda yashab o'tgan benazir alloma Hakim Termiziy, islom dunyosida olti buyuk muhaddisdan biri sifatida tan olingan Imom Iso Termiziy, mumtoz shoir Sobir Termiziy, muarrix Samandar Termiziy kabi o'nlab ulug' ajdodlarimiz, aziz avliyolarimizning mo''tabar nomlarini xalqimiz hurmat ehtirom bilan tilga oladi,-deydi, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov.

Hakim Termiziyning ilmiy merosi ulkan bo'lib, allomaning kitob va risolalari xahon mamlakatlarining turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Zomonning ulug' tariqat peshvosi yartagan asarlari va islom yo'lidagi sobit irodasi tufayli qator diniy unvonlarga noil etildi.

Alloma o'zining ayrim risolalarida, chunonchi, "Bayonul-kasb" da muqaddas "Kitobal-furuq" da hofiz, "Ilm al- aliyo"da zohid "Arab an-nafs" da imom, "Tahsil nazoir al-Qur'on" da muazzin unvonlariga egaligini eslatib o'tadi.²

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi qariyb o'n asrkim, qutlug' ziyoratgoh, muqaddas sajdagoh bo'lib kelmoqda. Shu bois XVII asrning taniqli tarixchi-geograf olimi Ibn

¹ Islom nuri. 2009 y 25 iyun

² Muqimov E. Tabarruk Termiziy. Milliy tiklanish. 2011 y 5 oktabr

Vali ta'kidlashicha, Termizda ikki rakat duoi fotihani bajo keltirish o'zga joylarda tilovot etilgan etti yuz rakatga teng kelar ekan.

Surxandaryo viloyatida, shu jumladan Termiz Davlat universitetida al-Hakim at-Termiziy va alloma yaratib qoldirgan ulkan merosni o'rganish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. 2004 yilda "Al-Hakim at-Termiziy va uning davri" mavzusida xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Al-Hakim at-Termiziy me'moriy majmuasida katta ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Lavlatimiz rahbari islom diniga, uning rasm-rusumlariga, bayram, diniy tarbiya va ta'limiga aloxida e'tiborni qaratar ekan, sho'ro tuzumi davrila ham o'z fikr-muloxazalarini bildirib ularning echimini amaliy ravishda topish uchun usul va yo'l-yo'riqlarni belgilab bera oldi. «Islom dini bu - ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, - deb uqtiradi Yurtboshimiz, - Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi ugitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-extirom tushunchalariga rioya etishga xarakat qiladilar» Istiqlol yillarida islom dini mavqeining tiklanishi, diniy marosimlar, milliy qadriyatlarimiz, asriy bayramlarimizning xalqqa qaytarilishi, musulmonlarning muqaddas Xaj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishganliklari, diniy-ahloqiy masalalar bo'yicha kitoblarning chop etilishi, diniy erkinlik va bag'rikenglikni ta'minlash kabi keng ommaga manzur ko'p savobli ishlar tezkorlik bilan amalga oshirildi Mustaqillik sharofati bois mo'tabar Kur'oni Karim va hadislarni chop etish imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, 1991 yilda Kur'oni Karim ilk bor o'zbek tilida Alouddin Mansur tarjimasi va Imom al-Buxoriyning «Sahihi Buxoriy» - 4 jildlik hadislar to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. 1991 yil 14 iyulda O'zbekiston xuquqiy tajribasida birinchi bor «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solindi. 1998 yil 1 may kuni ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

E'tiborli tomoni, 1992 yil 27 mart kunida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ro'za xayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e'lon qilish

to'g'risida»gi Farmoni imzolandi. O'zbekiston Prezidentining 1990 yil 2 iyundagi «Musulmon larning Saudiya Arabistoniga Xaj qilish to'g'isida»gi Farmoniga binoan O'zbekistan xalqi vakillari tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Xaj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Xaj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. «Islom nuri» gazetasi va «Xidoyat» jurnali nashr etilmokda. Prezidentimizning 1992 yil 7 martdagi Farmoni bilan islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom-tadqiqot instituti va 10 ta Madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar ta'lim olmoqda. Diqqatga sazovor tomoni, davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos va iqtisodchilarni tay yorlash maqsadida 1999 yil 7 aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

2007 yil - Islom konferentsiyasi tashkilotining ta'lim. fan va madaniyat masalalari buyicha muassasasi - AYSESKO tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyatining 2007 yildagi poytaxti deb e'lon qilindi. 2007 yil 14-15 avgust kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shaxrining «Islom madaniyati poytaxti» deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan «O'zbekistonning islom tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi» mavzuida xalqaro konferentsiya o'tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi. Bugungi kunda respublikamizda 17 ta diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi. Shuningdek, 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari va boshka diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi.

Ma'lumki, sobiq totalitar tuzumi davrida buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimizning adabiy va ilmiy meroslari faqat biryoqlama yondashgan holda e'lon qilinar, mumtoz asarlar esa uzuk-yuluk holda nashr etilardi. Xatto ularning, ayniksa, dinga aloqador jihatlari umuman olib tashlanar va shu tariqa asarlarning

mantiqiy yaxlitligiga putur etkazilardi. Bunga ulug' bobokalonimiz, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning g'azaliyoti, «Xamsa»si va boshqa benazir asarlari misol bo'la oladiyu, Endilikda mustaqillik sharofati tufayli ulug' allomalar, olimlar, mutafakkirlarning ijodiy merosi chuqur va xolis o'rganilgan holda, yani to'raligicha asl xolatiga mos ravishda nashr etilayotgani diqqatga sazovordir.

Ma'rifatarvar allomalar Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Baxouddin Naqshband, Maxmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Nasafiy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Maxdumi A'zam va boshka bobokalonlarimizning boy ma'naviy meroslari, ma'rifat va madaniyat ravnaqi borasidagi dunyoqarashi, nazariy qarashlari, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari xozirda mustaqil O'zbekistonimizda yashayotgan millat va elat vakillarini ezgu orzular sari etaklamogda, xalqlar o'rtasida birodarlik va hamjihatlik ruhini kuchaytirmokda.¹

Mustaqil davlatimizning bu boradagi amaliyoti millatimizning ma'naviy yuksalishi va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ma'rifiy mezonlar, ma'naviy fazilatlar, ahloqiy me'yorlar bilan ta'minlash va madaniyatni xalq ruhiga singdirishga qaratilgan bo'lib. katta tarbiyaviy axamiyat kasb etmoqda. «O'tmishdagi allomalarning bebaho merosi, - deb yozadi mamlakatimiz raxbari, - qanchadan-qancha avlodlarning ma'naviy-ruxiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va xamon ta'sir ko'rsatmokda». Buyuk mutafakkir alloma Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy «Al-Jome' as-saxix» («Ishonchli to'plam»), «Al-adab al-Mufrad» («Adab durdonalari») deb nomlangan shoh kitoblar, shuningdek, hadis ilmi, fikhga doir o'nlab asarlar muallifi hisoblanadi. Allomaning «Al-Jome' as-sahih» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilinib, «Xadis» (to'rt jildlik) nomi bilan nashr etildi. Xalqimizning asriy orzusi ushalib, aziz diyorimiz mustaqillik tufayli bobokalonlari- mizning bir necha asrlar avval yaratgan boy ilmiy, madaniy-ma'ri fiy meroslarida ilgari surilgan insonparvarlik va bunyodkorlik g'oyalaridan hamyurtlarimizning bahramand bo'lishi va ayni chog'da yoshlarimizga ma'naviy oziq berish, demakki, ma'rifiy-madaniy kamolot sari dadil

¹ Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston. T. "Ma'naviyat", 2013 y 91 bet

qadam tashlandi, desak aslo mubolag'a bulmaydi. Ayniqsa, ulardagi halollik, poklik, rostguylik, adolat, yaxshilik, sahiylik kabi fazilatlarni qaror toptirish va mustahkamlashga doir g'oyalar xalqimizga xamon xizmat kilmokda.¹ Allomalarimiz merosi O'rta Osiyoda o'tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohalari, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'p qirrali bo'lganligi, shuningdek, ularning faoliyatlarida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq-odob, insonning ma'naviy dunyosi masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Hakikatan ham, milliy qadriyatlarni tiklash, o'z navbatida, o'zlikni anglashga, milliy his-tuyg'u va iftixorni rivojlantirishga samarali ta'sir etadi. Masalan, yoshlar o'z bobokalonlarining ilmiy, adabiy meroslarini qanchalik yaxshi bilsalar, bulardan ma'naviy, ayniqsa, ilmiy ozuqa olish bilan birga, ular bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qiladilar. Istiqlol tufayli dinimiz va milliy qadriyatlarimiz kayta tiklandi. Islom madaniyatiga mansub bo'lgan ming yillik tarixga ega, o'tmish ka'ridan olamga nur taratib kelgan muqaddas obidalar, masjid va madrasalar mo'min – musulmonlarga qaytarib berildi. Ajdodlarimizdan qolgan tarixiy meroslarimiz qayta tiklandi, ularning ilmiy asarlari yosh avlod tomonidan keng o'rganila boshlandi. Bularning samarasi ularoq, xalqimizning diniy ilmlarga bo'lgan tashnaligini qondirish maqsadida bir qancha adabiyotlar nashr etildi. Xususan, Qur'oni karim va hadislar to'plami o'zbek tiliga tarjima qilindi, ulamolarimiz tomonidan tafsir va Islom huquqshunosligiga bag'ishlangan ko'pgina kitoblar yozildi. Milliy va diniy kadriyatlarning hayotimizda muhim o'rin tutishi, tarixiy xotiramizni tiklab, o'zligimizni anglashimizdagi roli, yangi jamiyat qurishda muhim kuch-qudrat manbai ekani YUrtboshimizning quyidagi purma'no fikrlarida yaqqol ifodasini topgan: «... biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayri holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz». Bugungi yuksak ma'naviy hayotimizni barpo etish uchun milliy va diniy kadriyatlarimizga to'g'ri munosabatda bo'lganimizning ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, istiqolning dastlabki kunlaridan boshlab tarixiy obidalarimizni qayta

¹ Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston. T. "Ma'naviyat", 2013 y 91 bet

tiklash, qadimiy va boy merosimizni har tomonlama asrab-avaylash va kelajak avlodga bezavol etkazish haqida qayg'urdik, buning uchun astoydil harakat qildik.

Bu masalaga Yurtboshimizning «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» kitobida alohida e'tibor berilib, quyidagi fikrlar bildirilgan: «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi».

Ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash borasida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva, Andijon, Farg'ona kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlashga katta ahamiyat berildi. Buyuk allomalarimizning ziyoratgohlari tiklanib, ularning ilmiy meroslari o'rganilmoqda. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Zamaxshariy, Abdulxolik G'ijduvoni, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Nakshband, Hoja Ahror Valiy nomlari bilan bog'liq joylar, Shohi Zinda, Ko'kgumbaz majmualari, masjid va madrasalar obodonlashtirildi.

Diniy ta'lim tizimiga ham alokida e'tibor berildi. Ilgari diniy ta'lim tizimida faqat Buxorodagi «Mir arab» madrasasi va Toshkentdagi Imom Buxoriy nomidagi oliy ma'had mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan, ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko'tara olgan mamlakatdir. O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta'minlash va mintaqa davlatlarining siyosiy, ma'naviy va iqtisodiy sohalardagi o'zaro integratsiyalashuvi jarayonida muhim o'rin egallamoqda.¹

¹ E'tiqod erkinligining huquqiy asoslari. Islom nuri. 2011 y.8 dekabr

2.2 Diniy bag'rikenglik taraqqiyot omili

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kunlardan boshlab davlatimiz rahbariyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini tula ta'minlab bera oladigan, ularning orzu-istaklarini ruyobga chiqarishga xizmat qiladigan demokratik jamiyat qurish uchun tinimsiz xarakat qilib kelmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz".

O'zbekiston - ko'pmillatli davlat. Yurtimizda millatlararo totuvlik va Bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hamda taraqqiyotni ta'minlash- ning asosiy shartlaridan hisoblanadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da shunday kayd etiladi: "Bag'rikenglik bulmasa, tinchlik bulmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bulmaydi".

"Bag'rikenglik" (tolerantlik) so'zi barcha tillarda bir xil yoki bir-biriga yaqin mazmunga ega. Ularni umumlashtirib bag'rikenglik so'zi chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va xarakatlarga xurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mexribonlik, hamdardpik kabi ma'nolarni ifodalaydi, deyish mumkin.

Bugungi kunda Vatanimizda 130 dan ortik, millat va elat istiqomat qiladi. Davlatimiz nafaqat ko'pmillatli, balki ko'p konfessiyali, ayni vaqtda yurtimizda 16 ta diniy konfessiya mavjud. Jamiyatimizda diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo o'zaro xurmat, bir-birini tushunish hayotiy ta- moyilga aylanib bormokda.

Diniy bag'rikenglik turli din vakillari, o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Xar kim o'z e'tiqdiga amal qilishda erkin bo'lgani holda bu hukuqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etmog'i lozim.

Dinlarni chuqur o'rganib, tahlil qilganda, shu narsa ayon bo'ladi, bugungi kunda e'tiqodchilar soniga ko'ra yuqori o'rinlarda turuvchi dinlarning insonlar yashash tarzini ifodalovchi umumiy axlok, qoidalarida o'xshashliklar mavjud. Buni buddaviylikning 5 ta, Kadimgi Axdning 10 ta va Islomning asosiy o'gitlaridagi jihatlarida ham ko'rish mumkin. Zero, "Yaxshilik qil, yomonlikdan qayt" demagan biror diniy ta'limotni uchratish mushkul.

Diniy bag'rikenglikning ziddi sifatida diniy aqidaparastlik va uning oqibatida diniy toqatsizlik yuzaga kelgan.

Diniy aqidaparastlik oqibatlarining oldini olish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko'lamli ishlar olib borilmokda. Bu borada BMTning fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti YUNESKO olib borayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

YUNESKOning tashabbusi bilan 1995 yil "Xalqaro bag'rikenglik yili" deb e'lon qilinishi va shu yilning 16 noyabrida qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, 1995 yilda YUNESKOning "Dinlararo va madaniyatlararo mulokat" dasturi qabul qilindi. Dastur doirasida Rabot (1995, 1998), Malta (1997), Toshkentda (2000) dinlararo muloqot mavzuida xalkaro anjumanlar o'tkazildi.¹

O'zbekiston xukumati oqilona, diniy bag'rikenglik siyosatini olib bormokda. O'tgan yillar mobaynida bu borada boy tajriba orttirildi. 1995 yilning oktabrida mintaqada ilk bor Toshkentda "Bir samo ostida" shiori bilan o'tkazilgan xalqaro konferentsiya fikrimiz dalilidir. 1996 yil rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiasining 125 yilligi tantanali o'tkazildi. 2001 yil sentabr oyida Toshkentda o'tgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi YUNESKO "Bag'rikenglik tarmog'i"ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqning urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlandi. 2004 yil 15 martda Parijdagi YUNESKO qarorgohida O'zbekiston va Frantsiyada diniy bag'rikenglik mavzusida xalkaro anjuman tashkil etildi.

Respublikada diniy bag'rikenglikni ta'minlashda alohida ahamiyatga ega hukuqiy hujjatlardan biri "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonundir. Konun 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. Baqt o'tishi bilan mazkur qonunni davr talablariga mos ravishda tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998 yilning 1 mayida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

¹ Mirmohmudova I. Bag'rikenglik xalqimizning fazilati. Islom nuri. 2012 y. 15 dekabr

Ishonch va iftixor bilan aytamiz, mintaqaning butun tarixi mobaynida Islom, xristian, yahudiy va buddaviylik dinlari vakillari o'rtasida diniy mojarolarning yuz bermaganligi o'zbek xalqining tinchliksevar, bag'rikeng ekanligiga yorqin dalildir.

“Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi — xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida xamkor va hamjixat bo'lib yashashini anglatadi”. Din qadim- qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga egaligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mexr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining xamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashning muxim sharti hisoblanadi. Masalan, azal-azaldan diyorimizda turli diniy ta'limotlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqoxlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir.

Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida xam ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelganlaridan dalolat beradi.

Xozirgi kunda mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmokda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshiripga va mamlakat xayotida ishtirok etishi uchun xamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi xuquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi- da”gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, xamjixat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida xarakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Dinlarning umuminsoniy moxiyati, maqsadi bir bo'lib, ylap aslida bir-birlariga

zid emas.

Diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz xududida ham islom, xam nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar bir-biridan o'rganganlar, ustoz-shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Aytish mumkinki, diniy ong rivojlanib, dinning mohiyatini chukurroq anglash bilan diniy bag'rikenglik ham rivojlana bordi. Bu hozirgi davrda diniy bag'rikenglikni yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o'z faoliyatini o'zapo teng xuquqlilik, hamdo'stlik va xamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag'rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo'stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e'tiqodidan qat'iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiy ezgu maqsad yo'lida hamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko'ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko'ra ham inson eng oliy mavjudotdir. U o'ziga berilgan umri davomida yashashga, ma'naviy amaliy jihatdan takomillashib, erdagi hayot sharoitlarini yaxshilash uchun kurashishga, ijod qo'shishga xaqli. Ma'naviy kamolotga erishish uchun inson yashashi, yaxshi sharoitlarga ega bo'lishi kerak. Demak, erdagi hayotni saklab qolish, rivojlantirish barcha kishilarning umumiy maqsadlaridir. Diniylik dunyoviylikni inkor kilmaydi, u bilan ba'zan yonma-yon yashasa, ayrim vaziyatlarda o'zapo yaqinlashadi, dunyoviylikning rivojiga xizmat qiladi. Dunyoviylik, ya'ni shu moddiy hayotni rivojlantirishga yo'nalganlik diniylikning ham maqsadlari bilan mos tushadi. Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqarashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do'stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Xaqiqatan ham diniy ta'limotlar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo'lishga undaydi.

Diniy bag'rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojlanishi barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar milliy g'oya va mafkurani amalga oshirish yo'lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g'oya va kishilar ongi hamda kalbiga joylashishiga yordam beradi.

Aksincha, diniy bag'rikenglikni tor ma'noda tushunish, bir tomonlama talqin qilish umumiy maqsadlardan chalg'itib, kishilarni o'zapo guruhlariga bo'lib yuborishi mumkin. SHuningdek, ayrim guruhlarining g'arazli manfaatlariga xizmat qiluvchi diniy niqobni yuzaga keltiradi. Bu haqida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: "Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'ta ketgan mutassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misol- lar ko'p. Fanatizmning o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari, avvalambor, o'z dinining haqiqi yligiga o'ta qattiq ishonish, boshqa diniy e'tiqodlarga murosasiz munosabatda bo'lishdan iboratdir.

O'zbekistonda yangi demokrati, fuxarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan xozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muximdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning xaqiqiy moxiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi. Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaasiblikka, ayirmachilikka xech qanday o'rin qolmaydi.

Respublikamiz axolisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, Fapb tsivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan ibo- rat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog'liq orzu umidlari asrlar osha yonma-yon yashash jarayonida shakllangan xamjixatlik, bag'rikenglik, qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi.

Xozirgi kunga kelib respublikamiz bo'yicha jami 2104 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi, Evangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim-katolik cherkovi, O'zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yaxudiylar jamoasi, 7 ta baxoiylar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o'quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 Madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to'lik injil xristianlari seminariyasi) davlat ro'yxatidan o'tgan.

O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruyu zaminimizning azaldan umumjaxon tamadduni markazlaridan biri bo'lgani barchaga ayon.

Bugun O'zbekistan diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida faqat MDX, davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Klinton xonim, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shaxzodasi Xasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabxalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjixatlik, bag'rikenglik va o'zaro xurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muxim omillaridan biridir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u xar qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi", degan so'zlari xayotga izchillik bilan tadbiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda bugungi kunda ikki muxim masala, bir

tomondan, tinchlik va ezgulik, dini islomni “soxta islomchi”lardan, ya’ni ma’rifiy islomni siyosiylashgan jangari islomdan ximoya qilish, ikkinchi tomondan, ko’p millatli, ko’p dinli jamiyatimizda e’tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruxida faoliyat yuritishlarining oldini olish muxim. Bu, navbatida, yurtimizdagi millatlararo xamjixatlik va diniy bag’rikenglikni yanada mustaxkamlaydi.

So’nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl moxiyati bo’lgan bag’rikenglikka zid bolgan xarakatlarga sabab bo’lmoqda. Bu xarakat va g’arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo’lishiga qaramay, maqsadlari bir — dindand niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, xokimiyatni qo’lga kiritishdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida dinning jamiyat xayotida tutgan o’rni xaqida, jumladan, shunday deydi: “Biz din bundan buyon xam axolini oliy ruxiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan baxramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz xech qachon diniy da’vatlar xokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo’lishiga yo’l qo’ymaymiz. Chunki bu xolni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb xisoblaymiz”.¹

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek qadim-qadimdan din aksariyat ma’naviy qadriyatlarni o’zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning ana shu tabiati bilan bog’liq. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g’oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, dustlik kabi fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafkat va bag’rikenglikka da’vat etadi».

Lekin bugun dunyoning turli burchaklarida dinga turlicha yondashishlar

¹ Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. “O’zbekiston”, 1997 y 49 bet

uchrab turibdi. Jaxondaga eng demokratik davlatlardan biri bo'lgan Shveytsariyada masjidning minoralari olib tashlandi, nima emish, minoralar shaxarlar qiyofasini buzarmish. Frantsiyada zamonaviy «madaniyat» targ'ibotchilari uchun ko'chada qip-yalang'och yurishga ruxsat berilgani holda boshga ro'mol o'rash man qilindi.

2011 yilning 22 iyul kuni Norvegiyada mudhish xodisa yuz berdi: Breyvik degan kimsa mamlakatda islomga e'tiqod qiluvchilarning yashashiga norozilik bildirib, begunox 77 kishini otib tashladi. Buni qarangki, uni nari borsa 21 yillik qamoq jazosi kutarkan.

Buyuk Britaniyaning 4,6 foiz, Frantsiyaning 8 foiz, Ispaniyaning 3 foiz, Finlandiyaning 0,8 foiz, Gollandiyaning 6 foiz, Belgiyaning 6 foiz, Avstriyaning 5,7 foiz, Germaniyaning 5,2 foiz axolisini islom diniga e'tiqod qiluvchilar tashkil etadi. Demak, dinlararo bag'rikenglik g'oyasini butun dunyoda targ'ib etish insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. SHuning uchun xam BMT joriy yilning 1-7 fevral kunlarini butun jaxonda **«Dinlararo munosabatlar uyg'unligi butunjaxon xaftaligi»** deb e'lon kildi. SHu munosabat bilan Toshkent islom universitetida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib utdi. Anjuman ishtirokchilari yurtimizda turli millat, elat va din vakillari o'rtasida totuvlikni, do'stlikni yanada mustahkamlashda bag'rikenglik tamoyillariga aloxida e'tibor berilayotganini kayd qilindi.

Shuningdek, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida, «Xadichai Kubro» nomli xotin-qizlar islom o'rta-maxsus bilim yurtida ham «Dinlararo munosabatlar uyg'unligi butunjaxon xaftaligi»ga bag'ishlab davra suxbatlari xamda maxsus o'quv soati tashkil etildi.

2011 yil 30 mart kuni O'zbekistan milliy matbuot markazida din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekistan musulmonlari idorasi hamda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar raxbarlari va chet el ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun «Diniy bag'rikenglik va dinlararo munosabatlar» mavzuida

matbuot anjumani bo'lib o'tdi.¹

Ko'p asrlik tarixga ega milliy davlatchiligimiz kechmishiga nazar tashlasak, mamlakatimizda diniy bag'rikenglik ildizlari juda teran ekanga ishonch xosil qilamiz.

Bizkim, o'zbeklarning islom dinini ravnoq toptirish, uni mustahkamlashdek sharaflı ishga qo'shgan hissamiz hech bir xalqnıkidan kam bo'lmasa kerak.

Dinni mustahkamlash uchun, avvalo, shu dinni yurakdan qabul qilish, chin ixlos bilan unga e'tiqod qilish va kuchli e'timod qo'yish kerak bo'ladi. O'zbeklar azaldan shunday va hamon shunday. Chunki subutilik, ahdga vafodorlik va va muqimlik xalqimizning tug'ma fazilatlaridan hisoblanadi.

Ajdodlarimizning yana bir ulkan xizmatlari shuki, islom dini garchi Arabistonda vujudga kelgan bo'lsada, uning ta'limotlari Turkistonda ravnaq topdi, takomilga erishdi. Buni qarangki, amir Qutayba askarlariga qattiq qarshilik ko'rsatgan Xorazm, Termiz, Buxoro, Samarqand, Farg'ona kabi Turkiston xududlari keyinchalik islom dinining yirik markazlari bo'lib qoldi. Musulmon dunyosiga buyuk xorazmiylar, buxoriylar, termiziylar, farg'oniylar, samarqandiy larni etishtirib berdi.

Ma'lumki, Qur'oni karim, hadisi sharif, ijmo', qiyos va boshqa diniy manbalarda tavsiya etilgan amallar, ibodatlar majmuiga sharoit deyiladi. Mazkur diniy manbalardan to'g'ri hukm va ajrim chiqarishga fiqh deyiladi. Fiqh-islom huquqshunosligi, faqih-huquqshunosdir.

Turkiston tuprog'idan buyuk muhaddislar singari ulug' huquqshunoslar ham etishib chiqdi. Ularning nomlarini tilga olish uchun bir ro'yxat tuzilsa, buning o'zi bir necha sahifa joyni egallaydi. Ularning nomlaridagi Sug'diy, Balhiy, Motrudiy, Samarqandiy, Marvaziy, Buxoriy, Shoshiy, Xorazmiy, Nisoviy, Dabusiy, Xilvoni, Keshiy, Isfijobiy, Nasaviy, Qushoni, Lomashiy, Farg'oni, O'shiy, Kosoni, O'zgandiy, Marg'inoni, Ustrushaniy, Axsikatiy va boshqa shu kabi nisbalar Turkistonning deyarli hamma viloyat va tumanlarida ham huquqshunoslik fani ravnaq topishini ko'rsatadi. Bu vatanimiz qadimdan ma'naviyat markazi

¹ Ibrahimov A Dinlararo bag'rikenglik muvoffaqiyatlarimiz garovi. Huquq va burch. 2011y 10 son. 26 bet

bo'lganiga yorqin bir dalildir. Hozircha ularni faqat bir muallif- Burxoniddin Marg'inoniyning 4 jild 57 kitobidan iborat "Hidoya" asarining birinchi jildi chop etildi, bu borada hali qilinadigan ishlar juda ko'p. Milliy huquqshunoslik fanining ana shunday mustahkam ildizlarga ega ekan o'zbek milliy davlatchiligi qonunga amal qilib faoliyat ko'rsatganini va bu fanning rivojiga davlat miqyosida e'tibor qaratilganini ifodalaydi.

Qo'shni deyilganda, endilikda ayrim kishilar tushunganidek, hovlingizning ikki tomonida yoki bo'lmasa ko'p qavatli uyda yonma-yon istiqomat qiluvchi kishilargina ko'za tutilmaydi, balki o'ng tomondagi 40 xonadon, so'l tomondagi 40 xonadon, ol tarafdagi 40 xonadon, orqa tarafdagi yana 40 xonadon, jami 160 xonadonda yashovchilarning barchasi sizga qo'shni maqomidadir. Bunday munosabat O'zbekistondek ko'p millatli mamlakatimizda xalqlar bir oila a'zolaridek ahil yashashlarida, yagona vatan va vatanparvarlik tuyg'usining shakllanib, kamol topishida katta ahamiyatga egadir.

Xalqimizning to'y bilan bog'liq azaliy udumlari respublikamizda yashovchi ellar, jumladan, rus, ukrain, koreys hamyurtlarimiz turmishiga ixtiyoriy ravishda asta-sekin kirib borayotgani xususidagi dalillarga shohidmiz.

Turkistonda azaldan til va vijdon erkinligiga katta e'tibor berib kelingan.

Istiqlol yillarida qabul qilingan bu boradagi qonunlarimizning ildizlari ana shu an'analarga borib tutashadi. Masalan, Buxoro yahudiylariga bo'lgan xayrli munosabatlarimizning o'zi bir tarixdir. O'zlarini "yahudiy" yoki "bney Isroel" (Isroil avlodlari) deb hisoblovchi bu xalq aksariyat adabiyotlarda "mahalliy yahudiylar", "Turkiston yahudiylari" deb atalgan. Ularning ajdodlari yurtimizga qachon kelib qolgani aniq emas. Ba'zi mualliflar ularni bundan yigirma olti asr muqaddam Isroildan Midiya hududiga, undan Turkistonga kelgan deyishsa, ba'zi olimlar Buxoro yahudiylarining ajdodlari isroil va yahudiy podshohlari bilan bo'lgan urushlarda assuriylar, bobilliklar, forslar olib ketgan asrlarning avlodlari bo'lsa kerak degan fikrni aytdilar. Ilk va o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lida savdo karvonlari muttasil qatnab turganida ham yahudiylar yurtimizga kelgani ehtimoldan uzoq emas. Aksariyat hollarda esa yahudiylar Arabiston, Yaqin va

O'rta Sharq mamlakatlarida o'tmishda yuz bergan irqiy va diniy ta'qib va tazyiqlar oqibatida yurtimizga ko'chib kelib boshpana topishgani, osuda tirikchilik qilish imkoniyatiga ega bo'lgani aniq.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida O'rta Sharq mamlakatlaridan ko'pgina hunarmand yaxudiylar Samarqandga ko'chib kelgani haqida ham ma'lumotlar bor. Yahudiylarning yurtimizga ko'chib kelishi keyingi asrlarda ham davom etdi, chunki ular doimo irqiy va diniy ta'qibga uchrab turardi, bizning mamlakatimizda esa bunday kamsitishlar yo'q edi.

1934 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, o'sha paytda O'zbekistonda 24 mingga yaqin Buxoro yahudiysi istiqomat qilgan. To'qsoninchi yillarga kelib 200 mingdan oshgan. Tarixiy vatanlari bo'lmish Isroilga ko'chib borib, o'rnashgan Buxoro yahudiylarining soni ham deyarli shuncha ekan. Ular vaqti-soati etganda, yurtimizda kamida 2 ming yil yashab, dinlarini saqlagan holda, bizlar bilan iliq xayr-xo'shlashib, ixtiyoriy ravishda o'z diyorlariga jo'nab ketgan edilar.

Darhaqiqat O'zbekiston turli millat va diniy e'tiqodga mansub odamlar yuz yillar mobaynida bir oila kabi inoq yashab kelayotgan, dini, irqi va millatidan qat'i nazar, inson sharaflanadigan bag'rikeng mamlakatdir. Ayni shu zaminda yuz yillar davomida dunyo madaniyatlarining katta miqyosdagi bir-birini boyitish jarayoni ro'y bergan. Masalan, yurtimizda tavallud topgan I.Kalantarov, Yu.Ishoqov, N.Mallaev kabi fan va madaniyat arboblari, Manas Leviev, Sulaymon Yudakov kabi bastakorlar, Yusuf Elizarov singari rassomlar, O'zbekiston xalq artistlari Berta (Billur) Davidova, Isohor Oqilov, Maryam Yoqubova va boshqalar yahudiy millatga mansub ekani, ular madaniyatimiz ravnaqiga katta ulush qo'shgani bu fikrga dalil bo'la oladi.

O'zbekistonda turli diniy konfessiyalarning mavjudligi ham shu bilan izohlanadiki, xalqimizning butun tarixi davomida hech qanday diniy nizo, odamlarni millati va diniy mansubligiga qarab ayirish xollari bo'lmagan va bunga xalqning o'zi hech qachon yo'l qo'ymagan. Taqdir taqozosi bilan yurtimizni ixtiyoriy ravishda tark etgan o'zga millatga mansub kishilarning O'zbekistonni halqimizni qo'msashlarining boisi ham ana shundadir.

Turli diniy e'tiqod, konfessiyalarga mansub kishilarning tinch-totuv yashashidan iborat bizning tajribamizni millatlararo, diniy va etnik asosdagi turli-tuman ichki va mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin. Bu xolat global ahamiyatga molik bo'lib, dunyo hamjamiyati tomonidan e'tiborga olinsa arziydi.¹

Istiqlol yillarida vijdon erkinligi borasida ham katta yutuqlarga erishdik. Yurtboshimiz mustaqillikka erishilgandan so'ng oradan ko'p o'tmay bunday degan edi: "Bugun ana shu din orqali vujudimizga musaffolik, dilimizga, inshoolloh, poklik kirib kelmoqda. Ahloq-odob, ma'rifat yana xonadonimiz fayziga, odamlar xislatiga aylanishida islomning o'rni benihoya bo'lmoqda. Biz kelgusida din oldidagi to'siqlarni olib tashlaymiz.

Yaxshilik nur keltiradi, yomonlik zulmat deydilar. O'zbekistonning kelajagi yaxshilik poydevoriga qurilmog'i shart. Chunki faqat yaxshilik boqiy yashaydi. Odamlarning odamlarga yaxshiligi! Yurtdoshlarning yurtdoshlarga yaxshiligi! Millatdoshlarning millatdoshlarga yaxshiligi! Bu O'zbekistonning shiorigina emas, da'vatiga, chaqirig'iga, xislatiga aylansin. Yaxshilik qilgan millatni hurmatlash, yaxshilik qilgan avlodni e'zozlash tafakkur olamining quyoshiga aylansin. Mening orzum ham, istagim ham, tutar yo'lim, asosiy qayg'u-tashvishim, quvonchu sevinchimning boisi ham shu".²

Yuqorida aytilganlarning bari endilikda to'liq ro'yobga chiqdi. Bunga bir ikkita misol keltiramiz. 1991 yilda mamlakatimizdan hajga ketganlar soni 1500 nafarni tashkil etgan bo'lsa, endilikda har yili 5 ming nafar kishi haj safariga o'tlanmoqda. 1989 yili yurtimizda 80 ta masjid faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun 2150 ta jome masjid ishlab turibdi, ularning aksariyati istiqlol yillarida qurilgan. 1991 yilda mamlakatimizda ikkita diniy ta'lim muassasasi ishlagan bo'lsa, bugungi kunda bularga qo'shimcha tarzda yana o'nta diniy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda.

Yurtimizdagi dinlararo bag'rikenglik tantanasini diyorimizda faoliyat olib

¹ Ibrahimov A. Dinlararo bag'rikenglik muvoffaqiyatlarimiz garovi. Huquq va burch. 2011 y. 10 son 28-29 betlar

² Xalq so'zi. 1991 y. 17 dekabr

borayotgan 16 ta diniy konfessiya misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, poytaxtimiz bo'ylab sayr qilsangiz, qo'hna va yangi masjidlar qatorida nasroniy va katolik ibodathonalariga ko'zingiz tushadi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy haykallari qatorida Ganjaviy, Rustaveli, Pushkin, Shevchenkolarining haykallari ham qo'cha va maydonlarimizga fayz baxsh etib turibdi. Bularning bari dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlik namoyishidir.

2012 yil 6 martda Toshkentda "Dinlararo bag'rikenglik-taraqqiyot omili" mavzusida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" nomli kitobida ta'kidlanganidek, "Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning hayorihoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlash, hayot sinovlarida oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga etkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq".¹

Diniy bag'rikenglik:

- Barcha dinlarning ezgulik g'oyalariga asoslanishi;
- E'tiqod eriknligi;
- Vijdon erkinligi;
- Turli din va konfessiyalarning teng huquqliligi;
- Turli din va konfessiyalarning bir-birlariga o'zaro xurmat bilan qarashi;
- Diniy-ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash;
- Barcha din vakillarining hamkorligi va hamjihatligi;
- Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaslik;
- Diniy partiyalar tuzishga yo'l qo'yilmasligi;
- Barcha dindorlarning siyosiy jarayonlarda teng, fuqaro sifatida ishtirok etishi.

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka

¹ Karimov I.A. YUksak ma'naviyat- engilmas kuch. T. "Ma'naviyat", 2008 y 36 bet

qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. SHu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik-turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dilini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini xurmat qilishni, ulaning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini, qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon etkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini xurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglikka asoslanish turli xalqlar va milatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan dinga munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning xuquqiy asosi yaratildi.

Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun hisoblanadi. Shular asosida xuquqiy-normativ hujjatlar ishlab chiqildi.

Respublikamizda islom dini muqaddas qadriyat xisoblanadi va u e'zozlanmoqda, mo'min-musulmonlarning erkin toat ibodat qilishlariga keng imkoniyatlar yaratildi. Islom ma'rifati-ma'naviyatimizning tarixiy qismi, e'tiqod erkinligi dahlsiz ekanligi bugungi kunda oddiy haqiqat bo'lib tuyuladi.

Yurtimizda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar mavjud qonunlar doirasida amalga oshirilmoqda. Ular bir-birlarining ishlariga aralashmaydilar. Lekin din jamiyatdan ajralgan emas. U Insonlarning ongida qalbida va e'tiqodida yashamoqda.

O'zbekistonda boshqa dinlarga ham xuddi shunday munosabat. Dinlararo bag'rikenlik g'oyasiga amal qilinmoqda.

O'zbekistonda 136 millat vakillari istiqomat qiladi. Ular 16 ta diniy konfessiyaga e'tiqod qiladilar. Xalqimiz turli dinlarga e'tiqod qilishdan qat'iy nazar ular o'rtasida do'stlik, hamkorlik, diniy bag'rikenglik xukm surmoqda. O'zbekiston diniy bag'rikenglik borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.

Yurtimizda buddizm, xristianlik, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar bor. Bu dinlarning muqaddas kitoblarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati kata. Bu dinlar o'rtasida hamkorlik va do'stlik mavjud bo'lib, ular yurtimizda tinchlik va farovonlik bo'lishi, taraqqiyot bo'lishi uchun xarakat qilmoqdalar.

Bu dinlar odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Xozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek; “Biz din bundan buyon ham aholining eng oliy ruhiy, ahloqiy va ma’naviy qadriyatlari, tarixiy va madaniy merosdan barhamand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qanday diniy da’vatlar hokimiyati uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo’lishiga yo’l qo’ymaymiz”.¹

O’zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda o’ziga xos yo’li bo’lgani kabi madaniy-ma’naviy yuksalishda ham o’z yo’li bor. Bu o’ziga xoslikni dinga bo’lgan munosabatda ham ko’rish mumkin. Islom ma’rifatini rivojlantirish, inson ichki olamini poklab, Allohni irfon bilan his etish, o’z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam yashashimiz lozim bo’ladi.

O’zbekistonda davlat va din o’rtasidagi munosbatlarni, diniy bag’rikenglik va diniy e’tiqod erkinligining ma’no-mazmunini, bu sohaga oid qonunlarning mohiyatini yoshlarga etkazish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim deb xisoblaymiz.

Birinchidan, Davlatimizning dinga oid siyosatining mohiyatini o’quvchi-talabalarga ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishga tushuntirish lozim.

Ikkinchidan, Dinga oid qonunlarimizning ma’no va mazmunini yoshlar orasida keng targ’ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, Diniy qadamjolarga, o’quvchi-talabalarning sayohatlarini uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

To’rtinchidan, o’quvchi-talabalarning nomozxonlik qilishlariga, missionerlik ta’siriga berilishiga yo’l qo’ymaslik kerak.

Beshinchidan, Dindan g’arazli niyatlarda foydalanishga urinayotgan yovuz kuchlarning kirdikorlari xaqidagi filmlarni yoshlarga namoyish qilish va ularning mohiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

¹ Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T. “O’zbekiston”, 1997y 44 bet

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T "O'zbekiston" 2014 y
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston", 1998 y
3. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda, "Turkiston press" axborot agentligi muhbiri savollariga javoblar. –T. "O'zbekiston", 1999
4. Karimov I.A. Vatanimiz tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning bukilmas irodasiga bog'liq. T. "O'zbekiston", 2004 y
5. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi to'g'risida. T. "O'zbekiston" 2001 y
6. Karimov I.A. "O'zbekiston islom tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ishtirokchilariga tabrigi. Xalq so'zi. 2007y. 14 avgust
7. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch". T. "O'zbekiston", 2008y
8. Karimov I.A. O'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos xissasining yuksak e'tirofi. Mohiyat. 2007 y. 23 fevral
9. Karimov I.A. O'zbekiston Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. "O'zbekiston", 1996 y
10. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovan hayot-pirovard maqsadimiz. 8.jild. T. "O'zbekiston", 2000y.
11. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3 jild. T. "O'zbekiston", 1995 y
12. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston ovozi. 1998y. 23 may
13. E'tiqod erkinligining huquqiy asoslari. Islom nuri. 2011 y. 8 dekabr
14. Alimov U. Istiqlol bergan chiroy. Islom nuri. 2009y. 5 avgust
15. Bag'rikenglik-barqarorlik va taraqqiyot omili. T. 2007 y.
16. Mirsafaev S. E'tiqod, vijdon erkindir, u zo'rlab singdirilmaydi. Inson va qonun. 1999 y. 26 oktabr
17. Muqimov E. Tabarruk Termiziy. Milliy tiklanish. 2011 y. 5 oktabr

18. Mirmahmudova I. Bag'rikenglik xalqimizning fazilati. Islom nuri. 2012 y. 15 dekabr
19. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston", 2000y
20. Norbaeva T. Quronov M. O'zbekiston 18 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. T. 2009 y
21. Komilov N. Jo'raev K. Davlat va jamiyat va din. T. "Akademiya" 2006 y
22. Qadr-qimmatim, tayanchim va iftixorimsan, mustaqil O'zbekiston. T. "Ma'naviyat", 2013y
23. Ibrahimov A. Dinlararo bag'rikenglik muvaffaqiyatlarimiz garovi. Xuquq va burch. 2011 y. 10 son
24. To'raqulov O. Bag'rikenglik, sahovat, mehr-oqibat ayyomi. Xalq so'zi. 2010 y. 9 sentabr
25. Yusupov E. Islomiy qadriyatlar va diniy ekstremizm. T. 2001 y
26. Eshanov B. Konstitutsiya va diniy e'tiqod erkinligi. O'zbekiston ovozi. 1999 y. 6 aprel
27. Ergashev I. Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik. T. "Akademiya" 2005 y
28. Jo'raev U. Saidjanov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. "Sharq" 1998y
29. Yo'ldoshxo'jaev H. Dinshunoslik. T. 2000 y
30. Xusniddinov Z. Vijdon erkinligi-uni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati. Jamiyat va boshqaruv. 4 son. 2002 y